

QABRDAN MAKTUB

Tarjimon: **Mahmud MAHKAM**

Toshkent
«Movarounnahr» 2005

Alloh taolo aytadiki:

«Har bir jon o'limni totib ko'rguvchidir. Biz sizlarni (sabr-toqatlaringizni sinash uchun) yomonlik bilan ham, (shukr qilishingizni bilish uchun) yaxshilik bilan ham «aldab» imtihon qilurmiz. (Keyin) faqat Bizgagina qaytarilursizlar»
(Anbiyo surasi, 35-oyat).

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar:

«O'limdan avval o'lingiz!» (Ajluniy, «Kashful Xafo», 2-jild, 2669.) «O'lganidan keyin afsuslanmaydigan inson yo'q. Hamma mutloqo nadomat qiladi. To'g'ri yo'lda bo'lgan kishi yanada ko'proq xayrli ish qilmagani uchun afsuslanadi. Yomon yo'lda bo'lgan esa nafsini yomonlikdan uzoqlashtirmagani uchun nadomat qiladi» (Imom Termiziy, «Zuhd», 55, 2405). Ushbu kitobdagi maktub vafot etgan o'g'ilning onasiga yuborgan dard-alam, iztirob, nadomat, pushaymonlik nomasidir. Maktub o'quvchini sergak torttiradi va ibrat olishga undaydi.

Ibratli maktublar mohiyati

Odamzodni turli fisqu-fujurlardan, yomonlik va har xil tubanliklardan qaytarish eng ulug' savob ishlardan sanaladi. Bu dunyoda umr kechirayotgan to'rt muchasi sog'lom kimsa boshiga xastalik kelmasa, o'z vujudiga nazar tashlamaydi. Musibatlarni, ayniqsa, har kimning boshiga albatta keladigan o'lim sababini o'z jigarbandlari vositasida sezmasa, uning mohiyatini anglamaydi.

O'lim - haq. Qabr hayoti - haq. Savol-javob bo'lishi ham, amallarning hisob-kitob qilinishi ham, qayta tirilish ham haqdir. Qiyomat kuniga qadar bu olamdan ko'z yumib vafot qilgan bandani ne-ne sinovlar kutib turibdi. O'lgan odamning qabrdagi, oxirat kunidagi holati yuzasidan nozil bo'lgan oyatlar, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan hadislar bor. O'sha hodisotni his qilish unga tayyorgarlikka olib keladi. Aniq anglash va his qilish e'tiboridan Abdulloh Sevinch tomonidan vafot etib ketgan bolaning onasiga yozgan maktub uslubida ta'lif qilingan ushbu kitoblar shu jihatdan muhimdir. U dunyodan maktub yozish, maktub vositasida banda boshiga keladigan kunlardan ogoh qilish o'ziga xos go'zal uslub. Zotan, dunyo adabiyotida bu vositadan foydalanish hollari uchraydi. Umuman, epostolyar, ya'ni maktub janrining o'ziga xos qiymatli jihati shundaki, yozayotgan kimsa o'z ruhiy holatini, kayfiyatini, voqelikka individual munosabatini bildirish imkoniga ega bo'ladi. «Qabrdan maktub», «Oxiratdan maktub» deb nomlangan kitobchalar mazmun-mohiyati maktub muallifining ma'naviy-ruhiy olamida kechayotgan jarayonlarni anglash uchun ham muhimdir. Bugina emas, eng

asosiysi - qalamga olingan barcha fikr-mulohazalar mustahkam zaminga, ya'ni oyat va hadislarga tayanadi. Maktub matnidagi har bir tanbihot yoki ogohlantirishning asosi manbalarda, izohda batafsil keltirib o'tiladi. Umuman, go'zal va ezgu amallarga chorlab, har qanday tubanliklardan xalos bo'lishga undovchi bitiklar o'quvchiga jiddiy ta'sir qiladi, deb o'ylayman.

**Bahodir Karimov,
filologiya fanlari doktori**

Bismillahir rohmanir rohim

TAQDIM

Ashobi kiromning ko'zga ko'ringanlaridan Baro roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Biz Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan bir janozada birga edik. Alayhissolatu vasallam qabrning chetiga o'tirib yig'ladilar. Hatto (ko'z yoshlaridan) tuproq ho'l bo'ldi, keyin esa: «Ey birodarlarim! Mana shu (boshingizga keladigan o'lim hodisasi) uchun yaxshi tayyorlaning», deb buyurdilar» («Kutubi sitta», 17/612).

Rasuli akram sollallohu alayhi vasallamni yig'latgan o'lim u zotdan o'rnak olgan sahobalarni ham yig'latgan edi. Hazrat Usmon roziyallohu anhu bir qabrning tepasiga kelib soqollari ho'l bo'lguncha yig'ladilar. U kishiga: «Jannat va do'zaxni eslaganingizda yig'lamaysiz, biroq qabr haqida gap ochilsa, yig'laysiz!» deyishdi. Hazrat Usmon dedilar: «Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: «Qabr - oxirat manzillarining birinchisi. Kishi undan qutula olsa, keyingilari osonroq bo'ladi. Undan qutula olmasa, keyingilari undan ham qiyinroq, og'irroqdir», deganlarini eshitdim» («Kutubi sitta», 15/141).

Shuning uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **«Ey Rabbim! Qabr azobidan Sendan panoh so'rayman»**, deya duo etganlar («Tajridi sarif», 4/503). Bizlarga esa: **«Qabr azobidan Allohga sig'ining!»** deb marhamat qilganlar («Tajridi sarif», 4/502). Bizlar ham Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va u kishiga ergashgan sahobalarning yo'lidan borib, bu qutulish tavsiyasiga amal qilamiz: qabr azobidan Allohdan panoh so'raymiz! Qabr (barzax) - inson hayotining bir davri, ya'ni o'limdan keyin boshlanib, oxirat hayotining qiyomatgacha davom etadigan kutish davri. Bu hayotda (qabr hayotida) rahmat ham, azob ham bor. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam va u zotning sahobalarini yig'latgan qabr azobi albatta bizni ham yig'latadi. To'kilayotgan ko'z yoshlar qabrimizni «jannat bog'laridan bir bog'» holiga keltiruvchi tomchi bo'lmog'i lozim. Shu bois men Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: «O'lmasdan avval o'ling!» degan da'vatlariga amal qilib, hadisi shariflar asosida bu maktubni yozdim.

Hadisi shariflar asosida yozilgan bu «maktub»da:

- o'lim onida hali ruh chiqmasidanoq Azroil va boshqa vazifador farishtalarning kishiga ko'rinishi;
- ruh chiqmay turib kishiga abadiy qoladigan oxiratdagi holatining ko'rsatilishi;
- solih amal egalari uchun Azroil va boshqa farishtalarning chiroyli, xush suratda, yomon amal egalari esa haybatli va qo'rqinchli qiyofada ko'rinishlari;

- kishining so'nggi nafasida solih amallar qilishi uchun o'limini kechiktirishini Allohdan so'rashi;
- sakaroti mavtning og'ir bo'lishi; - o'lim paytida ruhning tanani tark etishni istamay qarshilik qilishi, bunga qarshi vazifador farishtalarning kishiga azob berishi;
- solih amal egalarining ruhini rahmat farishtasi, yomon amal egalari ruhini esa azob farishtasi olishi;
- solih amal egalarini Illiyyinga, yomon amal egalarini Sijjingga qayd etilishi; - solih amal egalariga farishtalar tomonidan Allohning salomi yo'llanishi;
- o'lim onida tahoratli bo'lishi, boshi tarafida Qur'on o'qib turilishi, o'sha duo aytilishi va solih amal egasi bo'lishning o'lim azobini yengillatishi;
- o'lim payti duo qilinsa, farishtalarning ham omin, deyishi;
- so'qir kishilarga ham Azroilning ko'rinishi;
- o'lim payti kishining xirildoq ovoz chiqarishi, og'zining ko'pirishi, peshonasining terlashi, lekin bu holatlarni ko'rib turganlar marhum haqida yomon xayolga borib, o'zlari bilmagan holda g'iybat qilishlari va gunohkor bo'lishlari;
- ruhni tanadan olish uchun tayinlangan farishtalarning oyoqlardan boshlab, ko'krak qafasigacha sidirib chiqishlari, Azroilning ruhni olishi;
- ruh olingandan keyin o'likning o'z ruhini kuzatib turishi;
- o'lik tepasida sochlarni yulib, dod-faryod qilish marhumga azob bo'lishi; - marhum qabrga qo'yilganidan keyin ruhning farishtalar tomonidan yana tanaga qaytarilishi;
- qabrga qo'yilgan o'likning u yerdan uzoqlashayotganlarning oyoq tovushlarini eshitib turishi;
- yaxshi amal egalarining ruhlari o'limdan keyin bir-biri bilan ko'rishishi;
- qabrda Munkar va Nakir farishtalarining o'likni savol-javob qilishi;
- yomon amal egalarini qabr siqishi;
- qabrning ba'zilar uchun jannatning bog'laridan bir bog', ba'zilar uchun esa jahannam chuqurlaridan bir chuqur bo'lishi;
- o'likka ertalab va kechki payt oxiratdagi joyi ko'rsatilishi;
- payg'ambarlar va shahidlarning jasadlari chirimasligi;
- qabr azobining turli usullar bilan davom etishi, vaqti-vaqti bilan pasaytirilib, vaqti-vaqti bilan kuchaytirilishi, ba'zilar uchun esa azob berishning to'xtatilishi;
- qabr azobidan o'lik qilayotgan faryodni insonlardan boshqa hamma narsaning eshitishi;
- siydikka bee'tibor bo'lib, g'iybatchi va qarzdor holda vafot etgan kishiga qabr azobining orttirilishi;
- qabr azobidan qutulish uchun dunyo hayotida solih amallarga egalik qilish va oxiratga tayyor borish lozimligi xususida ba'zi savollarga javob o'laroq muxtasar ma'lumot berilgan.

Bu «maktub» butunlay iymoniy mavzu bo'lgan qabr hayoti bilan bog'liq oyat va asosan hadisi shariflarga suyanib tayorlangan. Bu «maktub» qo'rqitish uchun emas, faqat va faqat Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning duolarida ko'proq e'tibor berilgan qabrga tayyorgarlik uchundir. Tavfiq va hidoyat yolg'iz Allohdan.

Abdulloh Sevinch

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar: **Qabr yo jannat bog'laridan bir bog' yoki jahannam chuqurlaridan bir chuqurdir** (Imom Termiziy).

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday duo qilganlar: **Ey Rabbim! Ojiz va ojizlikdan, qo rzoqlikdan, xasislik va qabr azobidan panoh so rayman (Tajridi Sarih , 4/503).** Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: **Agar bir-biringizni dafn etmasligingizdan qo rzmaganimda qabr azobining sizga ham eshittirilishi uchun duo qilardim** (Kutubi sitta , 15/147).

Onajon! Atrofimda yig'ilib, dardu faryod bilan ko'z yosh to'kayotganingiz bir paytda umrimda aslo ko'rinmagan, menga notanish borliqlar yonimga keldi. Keyin bilsam, ular farishtalar ekan. Azroil va boshqa vazifador farishtalar... Osha paytda yana bir narsa bo'ldi. Menga oxirtda abadiy qoladigan joyim ko'rsatildi.

1 Olovlar bor edi u yerda. Jazo joyi ekan u yer. Hammasini tushundim: beparvoligimni ham, g'aflatimni ham, xatolarimni ham... Va juda qo'rqdim. Vujudimni titroq egalladi. Ahvolim shunday og'irlashdiki, sizlarni tanimay qoldim.

2 Azroilni ko'rishim bilan qo'rquvim kuchaydi. Juda haybatli edi... Dunyo hayotidagi g'aflatimga afsuslandim. Osha damda Alloh taolodan solih amallar qilishim uchun o'limimni kechiktirishi hamda meni qaytadan hayotga qaytarishini so'radim. Lekin vaqt o'tib ketgan edi. Istagim qabul bo'lmadi.

1. Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilinishicha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam buyurdilar: Sizlardan birontangiz vafot etsa, unga ertalab va kechki payt (jannat yoki do'zaxdagi) joyi ko'rsatiladi. Jannat ahlidan bo'lsa, (joyi) jannat ahlining (joyida), jahannam ahlidan bo'lsa, (joyi) jahannam ahlining (joyidadir). Unga Alloh seni qiyomat kuni tiriltirgunicha sening joying mana shu, deyiladi (Kutubi sitta , 15/145).

2. Abu Musodan (r.a.) rivoyat qilindi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan: (Joni chiqayotgan kishining) insonlarni tanishi qachon to'xtaydi? deya so'raganimda, u zot alayhissalom: (G'aybiy haqiqatlarni) ko'rganida! deya javob berdilar (Kutubi sitta , 17/108).

3 Tabiiyki, bularni siz bilmadingiz. Men chekayotgan azoblarni his qilolmadingiz. Ha, shunaqa! Qaerdan ham bilasiz? Menga o'xshab Azroilni hali butun dahshati bilan ko'rmadingiz-ku! Tirik paytimda sakaroti mavt haqida eshitgan edim. Jon chiqish mahalida shu og'ir bexushlik holatini boshimdan o'tkazdim. U juda og'ir! Azobni tushuntirib berish mumkin emas. Faqat umri nihoyasiga yetib, Azroil bilan yuzlashganlargina biladi, his qiladi... Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: Allohim, sakaroti mavtda menga yordam ber, deya qilgan duolari haqida imomlarimiz aytishardi. Go'yo qulog'imning bunisidan kirib, nafsimga aslo ta'sir qilmay, ikkinchisidan chiqib ketardi. Hammasi to'g'ri ekan...

Onajon! O'limni qassobning qo'lida terisi shilingan qo'ying tushgan oni kabi bir holat... Iztirobga to'la on. Juda, ammo juda og'ir va juda qo'rqinchli... Bu qo'rqinchli manzara oldida, bilasizmi, onajon, ruhim tanamdan chiqqisi kelmadi. Bo'laklarga ajraldi va tanamning turli burchaklariga qo'cha boshladi. Ruhim qarshilik qilgani sari farishtalar meni do'pposladilar. Shunday urdilarki, butun vujudim zirqirab ketdi.

4 Shu alfozda, hali ruhim chiqmasidanoq qabr azobi boshlangan edi. Nihoyat ruhim vujudimni tark etganidan so'ng kaltak yeyishdan qutuldim...

Bir savol meni qiynardi: shuncha kaltakka loyiq nima ish qilgan ekanman? Lekin keyinroq har bir urilgan kaltakning sababini tushunib yetdim. Bu kaltaklar dunyo hayotida qilgan yomon amallarim natijasi ekan...

3. Alloh taolo buyuradi: To'qachon ulardan (ya'ni, mushriklardan) biriga o'lim kelganda: Parvardigor, meni (yana hayotga) qaytaringlar. Shoyad, men qolgan umrimda yaxshi amal qilsam, deb qolur (Mo' minun surasi, 99-100-oyatlar). Payg'ambarimiz

sollallohu alayhi vasallam buyurdilar: O lganidan so ng afsuslanmaydigan hech kim yo q. Mutlaqo hamma nadomat qiladi: yaxshi yo lda bo lgan kishi xayrli ishini yanada ko proq qilmagani uchun afsuslanadi, yomon yo lda bo lgan kimsa esa nafsini yomonliklardan uzoq tutmagani uchun afsus chekadi (Kutubi sitta , 15/150).

4. (Ey, Muhammad, alayhissalom), agar siz farishtalar kofir kimsalarning yuz va ketlariga urib jonlarini olayotgan paytini ko rsangiz edi (Anfol surasi, 50-oyat).

5 Azroilning yonida yana ikki farishta bor edi. Biri rahmat, ikkinchisi esa azob farishtasi. Vafot etgan kishi yaxshi bo'lsa, Azroil olgan ruhini rahmat farishtasiga, yomon kishi bo'lsa, azob farishtasiga berar ekan. Allohning amri shunday. Bir qancha vaqt davom etgan azobdan so'ng nihoyat Azroil ruhimni oldi va uni azob farishtasiga topshirdi.

6 O'sha damda bir oz avval ko'rsatilgan oxiratdagi joyimning naqadar yomon ekanini yanada yaxshiroq tushundim. Zotan, ruhim olinayotganda bir qush kabi ko'ksimning eng ust tomoniga, xalqumimga uchib chiqdi. Shu payt farishtalarning gap-so'zlaridan hamma narsa oydin bo'ldi. Chunki «Buni kim muolaja qiladi?» deya bir-birlaridan so'rar edilar.

5. «Do'zax azobini totingiz! Bunga sabab o'zlarinigiz qilgan amallaringizdir. Zero, Alloh hargiz bandalariga zulm qiluvchi emasdir» (Anfol surasi, 51-oyat).

6. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinishicha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam buyurdilar: «Bir musulmonning jon talvasasi paytida rahmat farishtalari oq ipakli kiyimda kelishadi va bunday deyishadi: «Sen rozi va sendan ham (Rabbing) rozi bo'lgan holda (shu vujudan) chiq. Allohning rahmat va rayhoniga, senga g'azablanmangan Rabbingga qovush». Shundan so'ng ruh mushkning muattar hidi kabi chiqadi. Farishtalar uni bir-birlariga berib to salom eshigigacha olib borishadi va: «Sizga yerdan kelayotgan bu hid qanchalar ajoyib», deyishadi. So'ng uni mo'minlarning ruhlari oldiga olib borishadi. (Ular) uning kelgani uchun sizlardan birontangiz yo'qotgan narsangizning qaytib kelganidan ortiqroq sevinishadi. Undan «Falonchi nima qildi? Pismadonchi nima qildi?» deya (dunyodagilardan xabar) so'rashadi. Farishtalar: «Uni o'z holiga qo'ying, unda hali dunyoning qayg'usi bor!» deyishadi. Kelgan bu kishi (undan dunyo haqida so'ragan ruhlarga): «Falonchi vafot etgan edi, oldingizga kelmadimi?» deydi. Ular: «U onasiga - Hoviya do'zaxiga olib ketildi», deyishadi». Rasululloh sollallohu alayhi vasallam davom etdilar: «Kofir jon talvasasida yotganida azob farishtalari «mish» degan jundan to'qilgan qo'pol kiyimda kelishadi va bunday deyishadi: «Bu jasaddan o'zing g'azab bilan, Allohning ham g'azabiga uchragan holda chiq va Allohning azobiga yugur!» Shundan so'ng ruh jasaddan badbo'y hid bilan chiqadi. Farishtalar uni yer eshigiga olib kelishadi. U yerdagilar «Bunchalar ko'lansa hid!» deyishadi. Oxirida uni inkorchi ruhlarning yoniga olib borishadi» («Kutubi sitta», 15/85).

7 Bu holatda va undagi qiyinchiliklarni tushuntirib berish qiyin, onajon... Farishtalarni ko'rganimda oyoqlarim bir-biriga chalishdi. Balki siz ham oyoqlarimdan qonning qochib, oppoq, muzdek bo'lib qolganini sezgandirsiz...

8 Mana shunaqa, onajon! Men dunyodan olib kelgan yomon amallarim sababli farishtalar ruhimni badanimdan qiyinchilik bilan olishdi... Bular Nozi'at farishtalari ekan. Agar amallarim yaxshi bo'lganida, ya'ni solih amal egasi bo'lganimda ochiq chehrali, yengil jon oluvchi Noshiat farishtalari ruhimni olishar edi... Va menga Allohning salomini yo'llab: «Salom senga, ey Allohning valiy quli, muhaqqaqki, Alloh taolo senga salom yuboryapti», der edilar...

7. «Darhaqiqat, (jon) halqumga yetgan (vafot qilayotgan kimsaning atrofidagilar tomonidan): «Dam solib-o'qib qo'yguvchi biron kishi bormi?» deb qolingan, (jon taslim qilayotgan kimsaning) o'zi (bu holatning dunyodan) ajralish ekanini anglagan va (jon berish qiyinligidan) oyoq oyoqqa chalmashib qolgan bir vaqtda - ana o'sha Kunda yolg'iz Parvardigoringiz (huzuri)ga haydaliq bordir!» (Qiyomat surasi, 26-30-oyatlar.)

8. «Ruh vujudni asta-sekin tark etadi. Avval oyoqlaridan yuqoriga qarab tortiladi, oyoqlar muzlay boshlaydi. Keyinroq esa tizzalarga va undan yuqoriroq qismlarga tortiladi, halqumgacha kelganida insonning dunyo bilan aloqasi uziladi. Dunyoni ko'ra olmaydi, narigi olamga yo'nalgan bo'ladi» (Imom G'azzoliy).

9 Lekin bularning bari bekor! Mana shu alfozda g'aflatimdan pushaymon bo'ldim, onajon! Shoyad, Azroil kelganida tahoratli bo'lib, bir kishi tepamda Qur'on o'qisa, ko'p solih amallar qilib, misvok ishlatgan bo'lsam, bunchalik azob chekmas edim. Jon berishim osonroq kechar edi...

10 Yoki yonimda turgan solih bir do'stim men uchun Azroilga: «Ey Azroil! Do'stinga rahming kelsin, unga yumshoq muomalada bo'l. Chunki u mo'mindir», deya haqqimga duo qilsa, buncha azob chekmas edim...

9. «(Mo'minlar Allohga) ro'baro' bo'ladigan Kunda ularga (Alloh tomonidan yo'llanadigan) salom (ularga do'zax azobidan) omonlik

tilash bo'lar...» (Ahzob surasi, 44-oyat). «Ular (shirk va isyondan) pok bo'lgan hollarida, farishtalar ularning jonlarini olar ekanlar: «Sizlarga tinchlik-omonlik bo'lgay. (Endi) qilib o'tgan amallaringiz sababli jannatga kiringiz», derlar» (Nahl surasi, 32-oyat). «(Kofirlarning jonlari badanlarining) ich-ichidan qattiq sug'urib oladigan (farishta)larga qasam; (mo'minlarning jonlarini osonlik bilan) ildam tortib oladigan (farishta)larga qasam; (osmonlar bilan yer o'rtasida) silliq suzib, (o'z zimmalaridagi vazifalarni ado etishda) shoshib-o'zib, (Alloh buyurgan barcha) ishning tadbirini tuzib turadigan (farishta)larga qasamki, (sizlar albatta qayta tirilib, hisob-kitob qilinursiz)» (Van-noziot surasi, 1-5-oyatlar).
10. S. Toprak, O'lumden Sonraki Hayat, shf. 108.

11 To'g'risi, Azroildan, uning haybatidan qo'rqdim. Chunki u hali ruhimni olmasidanoq dahshatli qiyofada ko'rindi. Koshki ko'zlarim ko'r bo'lib, uning qo'rqinchli qiyofasini ko'rmasaydim. Biroq so'qirlik meni qutqarolmasdi, baribir uni ko'rishga mahkum edim. Biz tushungan jismoniy ko'rlikning u dargohda ahamiyati yo'q ekan. Kim bo'lishidan qat'iy nazar hamma o'lim paytida, hali ruhi chiqmasidan malakul mavtni ko'rar ekan...

12 Bilmayman, onajon, ruhim vujudimni tark etayotganida tomog'im bo'g'ilib, xirillagan ovozimni, yuzim o'zgarib, qoraya boshlaganini va og'zim ko'pirganini ko'roldingizmi? Menimcha, yo'q... Shunchalik ko'p yig'ladingiz, dod-faryod qildingizki, bu holda mendagi o'zgarishlarni sezish imkonsiz edi. Yaxshi ham ko'rmadingiz, onajon! Chunki o'sha holimni ko'rganingizda, balki oxiratdagi ayanchli oqibatimni taxmin qilib juda ezilar edingiz. Holbuki, dunyo hayotidagi amallarim yaxshi bo'lganida na rangim qorayar, na ovozim xirillar va na og'zim ko'pirardi. Bu ayanchli holat o'rniga peshonamda munchoqdek-munchoqdek ter paydo bo'lib,

11. Ibn Kasir tafsiri, 3/458.

12. «Umar ibn Abdulaziz jonlari uzilishidan oldin birdan boshlarini ko'tarib, bir nuqtaga tikilib qoladilar. Yonlaridagilar bu qarashning sababini so'rashganida, «Men hozir shunday kimsalarni ko'ryapmanki, ular inson va jin emaslar», deydilar va ruhlarini taslim etadilar» (Suyuti). Mashhur faqih Ikrimadan «Ruhi olinayotganda ko'rlar ham malakul mavtni ko'rishadimi?» deb so'rashganida, «Ha», deya javob berganlar.

13. Ko'zlarim yoshlanar, yuzim nurlanar va burun teshiklarim kengayar edi. Albatta, bularning bari menga huzur berardi.

14. Ha, yana bir narsa, onajon, jon chiqish paytida marhumning holini ko'rib, u haqida aslo yomon gap gapirmanglar. Bu eng yomon va tahlikali, ya'ni halollashning imkoni yo'q bir g'iybat sanaladi. Aslo esingizdan chiqarmang! Yaxshi insonlarning jonlari uzilmasidan gunohlari yengillashsin. O'lim payti shunday azob berilishi mumkinki, buni siz bilmaysiz-ku! Ayni damda jon chiqishdagi qiyinchilik marhumning gunohini yengillatuvchi kafforat bo'lishi mumkin.

13. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar: «Mo'min peshonasining teri bilan o'ladi» («Kutubi sitta», 15/86).

14. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning bunday deganlari rivoyat qilinadi: «Siz o'likda uchta narsaga e'tibor bering: agar peshonasi terlab, ko'zlari yosharsa va burun teshiklari shishsa, Allohning rahmatidan. Tomog'i qisilgan kishi kabi xirillagan ovoz chiqarib, yuzi so'lishib, rangi o'zgarsa va og'zi ko'pirsa, Allohning azobidandir».

15. Onajon! Sizga tanamdagi ruhni qanday olganlarini ham tasvirlab beraman. Yuqorida aytganimdek, Azroil boshqa farishta bilan birga yonimga keldi. Bularning barini ko'rib turdim. Farishtalardan ikkitasi vazifasini ado etish uchun oyoqlarimdan boshlab, tanamning turli joylariga qochgan ruhimni yuqoriga qarab sidira boshladilar.

Hiqildog'imgacha olib kelishdi. Shundan so'ng Azroil ishga kirishdi va ruhimni sug'urib oldi...

16 Va ming afsuski, ruhimni azob farishtasiga topshirdi. Chunki mening dunyodan olib kelgan yaxshi amallarim yo'q edi. Ahvolim shuni taqazo qilardi... Azob farishtasi menga ruhimni kutdirishini aytdi. Chunki samo gumbazlari gunohkor bo'lganim uchun mening ruhimni qabul qilmadi. Holbuki, dunyodagi amallarim yaxshi bo'lganida Azroil ruhimni rahmat farishtasiga topshirardi. U esa mening ruhimni Alloh huzuriga olib chiqar edi. Bilasizmi, onajon, sizlar mening tanamni kafanga o'rayotganlaringizda, farishtalar ham

Alloh huzuriga olib chiqish uchun ruhimni kafanlayotgan edilar.

15. Hazrat Oisha roziyAllohu anho rivoyat qilishlaricha, Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam bir kuni bu onamizning yonlariga kirganlarida Oisha onamiz bir yaqin kishilarining o'limi yaqinlashib qolganidan xafa bo'lib o'tirardilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu onamizning tushkunliklarini ko'rib: «Bu yaqining uchun xafa bo'lma. Zero, uning bu iztirobi hasanotidan», deya marhamat qildilar («Kutubi sitta», 17/108). Umar ibn Abdulaziz ham shu xususda bunday deganlar: «Menga o'lim sakarotining yengillashtirilishini orzu qilmayman. Chunki u (azob) mo'minning gunohlarini yopuvchi va darajasini yuksaltiruvchi oxirgi kafforatdir» (Al-Asqaloni).

16. «... Qachonki, birovingizga o'lim kelsa, elchilarimiz sustkashlik qilmagan hollarida uning jonini olurlar» (An'om surasi, 61-oyat).

17 Albatta, sizlar buni ko'rolmaysiz. Odamlar jasadimni yelkalaridan tushirib, qabrga qo'yib, ustimdan tuproq tortishganidan keyin farishtalar ruhimni qaytadan tanamga joyladilar. Aqlim yana boshimga qaytarildi.

18 Bilasizmi, onajon?! Farishtalar ruhimni dunyo osmoniga ko'tarib eshik ochilishini so'raganlarida yaxshi amallarim bo'lmagani uchun eshiklar ochilmadi. Farishtalar ruhimni Sijjingga olib borib, yomon amallar daftariga qayd ettirganlaridan so'ng yana jasadga qaytardilar.

17. «Insonlar o'likning tanasini kafanlayotganlarida farishtalar ruhini kafanlaydilar» (Suyuti).

18. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam bir kuni qabrdagi ahvol haqida gap ochdilar. Umar ibn Xattob roziyAllohu anhu qabrdagi hayotning mohiyatini yaxshilab tushunib olish uchun «Aqlimiz boshimizga qaytadimi?» deya so'radilar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Ha, bugungi hayotingizdagidek aql va shuuringiz qaytariladi», deb marhamat qildilar («Tajridi Sarih», 4/504).

19. Oh, onajon! Agar yaxshi amallarim bo'lganida ruhimni samoga rahmat farishtalari olib chiqar, samo eshiklari ochilib, amallarim Illiyyinda qayd ettirilardi. Bundan tashqari u yerda solih insonlarning, mo'minlarning ruhlari bilan ham uchrashgan bo'lardim. Ular mendan: «Falonchi nima qilyapti?» deb so'rashardi. Men esa: «U ham o'ldi, bu yerga kelmadimi?» der edim. Shunda ular vafot etgan kishining (gunohkor bo'lgani uchun) jahannamga olib ketilganini va samo eshiklari unga ham ochilmaganini tushuntirib berishardi.

20 Mehribon onaginam! Bolam vafot etdi, deya ko'zlarimni yumganingizda men bir nuqtaga tikilib, tanamdan olingan ruhimni kuzatib yotardim.

19. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «...Farishtalar yer yuziga tushiriladilar. Jasad qabrga kirganidan keyin ruh unga qaytariladi» (Ahmad ibn Hanbal, «Musnad»). * Hofiz ibn Hajar bunday deydi: «Mo'minlarning ruhlari Illiyyinda, kofirlarning ruhlari Sijjiyndadir».

20. Abu Hurayra roziyAllohu anhu Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning bunday deganlarini rivoyat qiladilar: «Mo'minning ruhi chiqqanida uni ikki farishta kutib oladi va yuqoriga olib chiqishadi. Samo xalqi: «Yer yuzidan xush va go'zal bir ruh keldi. Alloh senga va (hayotligingda) obod qilganing vujudingga salot aylasin», deyishadi. Shundan so'ng Aziz va Jalil bo'lgan Rabbiga olib borishadi. Keyin: «Buni ajalning oxiriga (ya'ni, Sidratul Muntahoga) olib boringlar», deb buyurishadi» (Imom Muslim).

21 Kimlardir baqir-chaqir qilib, marsiyalar o'qib, baland ovozda yig'lay boshladi. Bu holat meni ranjitdi. Chunki «oh-voh»lar menga azob berayotgan edi.

22 Azaga kelganlardan kimdir men uchun rahmat tilab, xayrli duo qildi. Billsangiz, ana shunda men juda xursand bo'ldim. Chunki ularning duosiga farishtalar omin, deyishayotgan edi. Ko'zlarim yumib qo'yildi.

21. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Abu Salama roziyAllohu anhu vafot qilganida oldiga borsalar, uning ko'zlari ochiq edi. Muborak qo'llari bilan uning ko'zlarini yopdilar va bunday buyurdilar: «Ruh olinganida ko'z unga tobe' bo'ladi (ya'ni, uning orqasidan qarab qoladi). Shu sababli vafot etgan kishining ko'zlari ochiq qoladi».

22. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam bunday deb aytdilar: «(Iztirob va motamdan) yuzlarini yulgan, ust-boshini yirtib, umidsizlikka tushgan, johiliyat duosi bilan duo qilganlar bizdan emas» («Kutubi sitta», 15/97). Ba'zi ulamolar: «Ovoz chiqarib motam tutish harom ekanini bilgan kishi agar o'lgan taqdirda yaqinlari aza ochishlarini bilsa ham, ularni ogohlantirmagan bo'lsa, yaqinlari tutadigan motam sababli unga azob beriladi», deyishgan («Kutubi sitta», 17/108).

23 So'ng jag'imni bog'lashdi. Kiyimlarning o'z vaqtida yechib olingani yaxshi bo'ldi. Ko'rganingizdek, ruhim olinganidan keyin muzlab qolgan edim. Oyoq barmoqlarimni bir-

biriga bog'lashni ham o'z vaqtida bajardingizlar. Faqat o'limim xabarini do'stlaringga yetkazishda bir oz beparvo bo'ldingizlar.

24 Janoza namoziga yig'ilgan jamoatning ko'proq bo'lishini xohlardim. Chunki ularning ko'pligi men uchun shafolat edi. Ammo masjidgacha borib, janoza namozini o'qimaganlar meni juda xafa qilishdi. Sizlardan ko'ngil so'rash maqsadida janozamga qatnashib yaxshi qildilar. Janoza namozini o'qishsa, nima bo'lardi? Ham meni sevintirishardi, ham o'zlariga foyda bo'lardi.

23. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «O'liklaringizning yonida bo'lganingizda (o'lgach), ko'zlarini yuminglar. Chunki ko'z ruhni kuzatib turadi (shuning uchun ochiq qoladi). Va yaxshi so'zlarni gapiringlar. Negaki, farishtalar xonadon ahli aytayotgan gaplariga «Omin», deyishadi» («Kutubi sitta», 17/109). Abu Hurayra roziyAllohu anhudan rivoyat qilinishicha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Inson o'lganida ko'zlari katta ochilib qolganini ko'rmaysizmi?» deb so'radilar. Jamoat: «Ha, ko'ryapmiz», deyishdi. Shunda Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam: «Mana shu ko'zning nafsini kuzatishidir!» dedilar («Kutubi sitta», 15/83).

24. Ibnul Arabiy o'lim xabarini yetkazishda uchta holat borligiga e'tibor qaratadilar: - Yaqin kishilarning, do'stlarning, solihlarning o'limini bildirish. Bu sunnat. - Riyo va maqtanish, ko'p insonlarni jalb etish uchun e'lon qilish. Bu makruh. - Aza va dod-faryod bilan bildirish. Bu esa haromdir.

25 Suyukli onajonim! Qaysi bir kuni meni (qabrimni) ziyorat qilish uchun keldingiz, menga salom berdingiz. Men ham salomingizga alik oldim, eshita oldingizmi?

26 Sizni intizorlik bilan kutaman. Kelishingiz meni qanchalik sevintirishini bilsangiz edi. Tez-tez kelib turing, maylimi, onajon!.. Salomdan so'ng men uchun mag'firat tilasangiz, yanada mamnun bo'laman. Shunga muhtojman...

25. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: «Kimning janozasida yuzta musulmon namoz o'qisa, u mag'firat qilinadi» («Kutubi sitta», 17/116). Yana Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Kim bir musulmonning janozasini o'qisa, unga bir qirotlik savob bor. Kim dafn qilinguncha janozada ishtirok etsa, unga ikki qirotlik savob bor. Muhammadning nafsi qo'lida bo'lgan Zoti Zuljalolga qasamki, qirot shu ko'rayotganingiz Uhud tog'idan ham kattadir» («Kutubi sitta», 17/126).

26. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Badr jangida o'ldirilgan mushriklar bilan to'ldirilgan chohning oldiga kelib, ularga qarata: «Rabbingizning sizga bergani (azobni) haqiqat ekanini ko'rdingizmi?» deb xitob etdilar. U yerdagilar: «O'liklarga gapiryapsizmi, o'liklar ham eshitadimi?» deyishganida, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Siz ulardan yaxshiroq eshitmaysiz, ya'ni ular hatto sizdan yaxshi eshitadilar», deb javob berdilar (Imom Buxoriy).

27 Onajon! Mendan jahlingiz chiqmasin, bu yerda juda notinchman. Hozir dunyo hayotidagi g'aflatimning azobini tortyapman. Ruhim doim iztirob ichida... Na samodaman, na yerda. Ikkisining o'rtasida qoldim. Koshki hayotligimda solih amallar, ya'ni xayrli va yaxshi ishlar qilsam edi. O'shanda Illiyyinda bo'lardim. Joyim ham aniq bo'lardi. Buni juda-juda xohlayman. Chunki dunyoda Allohga bergan ahdiga sodiq qolganlar, yaxshi amal egalari borki, ular go'yo jannatdagidek hayot kechirishadi. Shunda ham ahvolimga shukr qilaman. Meni kechroq bo'lsa ham, qutqaradigan iymonim bor. Zero, inkorchi (kofir)lar ahvoli juda og'ir. Ularning ruhi yetti qavat yer ostidagi Sijjinda, qora qushlarning og'zida yoki jig'ildonida azoblanyapti.

28 Onajon! Bu yerda insonlar bir-biri bilan ko'rishishlari ham mumkin. Lekin bu imkoniyat solih amal egalari berilgan. Yaxshi amal egalari bir-birlarini ziyorat etadilar. Hayoti dunyoda bo'lib o'tgan va kelajakda bo'ladigan narsalar haqida muzokara qiladilar. Ammo hamma xohlagan insoni bilan ko'risholmaydi. Faqat amal jihatidan darajalari teng bo'lganlar bir-biri bilan ko'rishadilar.

27. Ibn Abbos roziyAllohu anhudan rivoyat qilinishicha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Madina ahlining qabristoniga kirdilar. Qabristonga yuzlarini burib: «Assalomu alaykum, ey qabr xalqi! Alloh sizni ham, bizni ham mag'firat qilsin. Sizlar bizning salaflarimizsiz. Biz ham orqangizdan boramiz», dedilar («Kutubi sitta», 15/135).

28. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Kofirlarning ruhlari qora qushlarning jig'ildonlaridadir. Olovdan eb-ichadilar. Olovdagi bir toshga qo'nadilar va: «Ey Rabbimiz, birodarlarimizni bizlarga qo'shma, bizni ogohlantirganing jahannamni bizdan uzoqlashtir», deyidilar» (An-Nasafiy).

29 Men esa hech kim bilan uchrasha olmayapman. Xuddi tutqunga o'xshayman. Tashvish shunchalik ko'pki, fursatim yo'q. Qolaversa, bu yerga gunohlarim uchun menga

ruxsat berilmaydi.

30 Bu olamning qonuni mana shunday, onajon! Koshki men ham hayotligimda go'zal amallar qilib, bu yerga xayrli amallar bilan kelganimda edi. O'shanda otamni ham ko'rardim. U kishini ko'rishni juda ham xohlayman, bu orzuimdan sizning xabaringiz yo'q. Otamning chiroyli amallari uni qutqarib qolgan bo'lsa kerak, men turgan azob joyida u kishini uchratmadim.

29. «Kimda-kim Alloh va payg'ambariga itoat etsa, ana o'shalar Alloh in'omlariga sazovor bo'lgan zotlar - payg'ambarlar, haq-rost iymon egalari, shahidlar va faqat yaxshi amallar bilan o'tgan kishilar bilan birga bo'lurlar. Ular esa eng yaxshi hamrohlardir» (Niso surasi, 69-oyat). Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinishicha, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: «Muhaqqaq, jannat ahli u yerda bir-birlarini ziyorat etadilar» («Musnad»).

30. Ibn Qayyumning izoh berishlariga ko'ra, azoblanayotgan ruhlar bir-birlari bilan ko'rishishga fursat topolmaydilar. Ular xuddi mahbusga o'xshaydilar. Ammo ne'mat ichidagi ruhlar bir-birlari bilan uchrashishadi, bir-birlarini ziyorat etishadi. Dunyoda bo'lib o'tgan va o'tadigan narsalar ustida muzokara qilishadi. Har bir ruh amalda o'zining tengi va darajasidagi do'sti bilan birga bo'ladi.

31 Onajon! Janozamga kelganlar ustimga tuproq tortib qaytib ketishgach, ruhim tanamga qaytdi. O sha damda meni qabrga qo yganlarning oyoq tovushlarini eshitayotgan edim. Shu zahoti yonimga ikki maloika keldi. Ularning biri Munkar, ikkinchisi Nakir edi. Ular shu darajada haybatli ediki, qo rquvdan nima qilishni, nima gapirishni bilmay qoldim. Chunki hamma narsa ravshan... Oxiratdagi oqibatimni taxmin qilayotgan edim. Zotan, jahannamdagi joyim ham bir oz avval ko rsatilingan edi. Shuning uchun qiyomat boshlanishini hech istamayman, onajon! Chunki qiyomat boshlansa, jazo olish uchun jahannamga kiraman...

Qo rqyapman, onajon, juda qo rqyapman!.. Biroq amali yaxshi bo lganlar, ya ni bu yerga savoblar bilan kelganlar juda xushnud. Munkar va Nakirdan aslo qo r qmaydi ular. Jannatdagi joylarini ham avvaldan ko rishgan. Shu bois ular tezroq qiyomat bo lsa-yu, jannatga tezroq yetishsak, deya hayajon ichidalar.

Onajon! Aytganimdek, Munkar va Nakirning haybatini ko rgan zahotim qo r qib ketdim. Ular mendan Rabbing kim? Dining nima? Payg'ambaring kim? deya so rashdi. Kitobing nima? Qiblang qaer? Iymoning nima? Amaling nima? kabi savollar ham berildi. Bu safar o zimni yo'qotib qo ydim va savollarga to g ri javob berolmadim. Va rosa baqirdim, ovozimni eshita oldingizmi, onajon?!

32 Holbuki, savollarning javobi qiyin emas. Yaxshi amal egalari Rabbim - Alloh, dinim - Islom, Payg'ambarim - Muhammad sollallohu alayhi vasallam , deya osongina javob berishdi.

31. Tobe inlardan Said ibn Musayyab: Bir kishi qazo qilganida (avvalroq vafot etgan) farzandi uni uzoq safardan qaytgan kishini kutib olgandek kutib oladi , deganlar.

32. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan so ralgan bir savolga: Ular (o liklar) sizdan yaxshiroq eshitadilar, biroq javob berishga kuchlari yetmaydi , deya marhamat qildilar (Imom Muslim).

33 Chunki Allohning qonuni shunday: Har kim qilgan amaliga yarashasini ko radi .

34 Onajon! Yuqorida ta kidlaganimdek, hozir katta azob ichidaman. Qabrim meni siqyapti...

33. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: Qul qabrga qo yilib, yaqinlari undan ayrilgach, u qaytib ketayotganlarning oyoq tovushlarini eshitadi. Uning yoniga ikki farishta (Munkar va Nakir) keladi. Uni o tqazib: Muhammad sollallohu alayhi vasallam degan kishi haqida nima deyayotgan eding? deya so rashadi. Mo min kishi bu savolga: Guvohlik beramanki, u Allohning quli va elchisidir! deya javob beradi. Unga: Jahannamdagi joyingga qara! Alloh u yerni jannatda bir makonga o zgartirdi , deyiladi. (Kishi qarab), har ikkisini ham ko radi. Alloh uning qabridan jannatga qaragan tuynuk ochadi. Agar o lgan kishi kofir va munofiq bo lsa, (farishtalarning savoliga): (So raganingiz zotni) bilmayman. Men ham hamma aytgan gapni gapiryapman! deb javob beradi. Unga: Tushunmading va uyg onding , deyiladi. So ng quloqlari o rtasiga gurzi bilan uriladi. Gurzining og rig idan (o lgan kishi) shunday faryod qiladiki, uning ovozi (inson va jinlardan iborat) ikki toifadan tashqari barcha (quloq egalari) eshitadi (Kutubi sitta , 15/148).

34. Inson uchun faqat o zi qilgan harakatgina bo lur (ya ni, o zgalarning qilgan yaxshi amallaridan unga biron foyda yetmas). Uning qilgan sa y-harakati esa yaqinda (qiyomat kunida) ko rinur. So ngra u (o sha sa y-harakati uchun) to la-to kis jazo-mukofot olur

(Van-najm surasi, 39-41-oyatlar).

35 Doimo g'am-qayg' udaman. Yaqinlarim bilan uchrasholmayapman, sizlardan xabar ololmayapman. Joy-makonim aniq emas. Bularning hammasi meni iztirobga solyapti. Ustiga-ustak har kuni erta-yu kech jahannamda tortadigan azoblarim menga takror-takror ko'rsatiladi. Bu meni yanada ko'proq qo'rquv va iztirobga soladi. Ammo umidsizlikka tushayotganim yo'q. Chunki bu azobdan qutulolsam, hech bo'lmasa, Dori mavqif, deyilgan mahsharda toza bo'laman. Agar tortayotgan bu azob tufayli qabr yoki mahsharda gunohlardan poklana olmasam, juda qo'rqayapman, onajon, jahannam o'tida tozalanaman. Chunki gunohlardan poklanib, Allohning rahmatiga yetishmaganlar jannatga kirolmaydilar. Jannatga kirish uchun gunohlardan xoli bo'lish shart. Bu yerning o'zgarish qonuni bu: Poklanmaganlar (ya'ni, gunohlardan xalos bo'lmaganlar) hech jannatga kirolmaydi. Chunki u yer pokiza kishilarning joyidir.

36 Oh, onajon! Jannatni qanchalik orzu qilishimni bilsangiz edi. U yerni ta'rifi qilishning imkoni yo'qligi haqida ko'p eshitamiz. Bu esa u yerga bo'lgan orzuimni yanada oshiradi. Jannatda hamma narsa bor ekan. Nimani istasang, darhol berilar ekan. Siqilish yo'q. Kenglik bor. G'am-qayg' u yo'q, sevinch bor ekan. Sevgan kishilaringni ko'rar ekansan. Ya'ni, sizga tushuntirsam, onajon, yo'q, degan narsaning o'zi yo'q ekan jannatda. Ayniqsa, mukofotlarning eng ulug'ini - hayotligimda nasihatlariga quloq solmay, g'afolatda qolganim Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bilan Havzi Kavsarning atrofida uchrashish ekan.

35. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyuradilar: Agar bir-biringizni dafn etmasligingizdan qo'rqmaganimda qabr azobining sizga ham eshatterilishi uchun duo qilardim (Kutubi sitta, 15/147).

36. Alloh taolo insonlarning gunohlaridan tozalanishlari uchun bir qancha imtihon va xastaliklar tayyorlab qo'ygan. Dunyodaligida gunohlaridan butunlay poklanmaganlar barzax olamida, u yerda ham tozalanmasalar, ya'ni u yerda tortgan azoblari ularni barcha gunohlaridan tozalashga yetmasa, dori mavqifda (mahsharda), u yerda ham poklanmasalar, jahannamda poklanadilar. Shu alfozda butunlay poklangandan keyin top-toza holda jannatga kiradilar. Chunki u yer pok kishilarning joyi (Izmirli Ismail Hakki, Yeni ilmi Kelam, 2/199).

37 Bundan tashqari, onajon, Alloh taoloni ham u yerda ko'rar ekanman. Bu ham menga o'zgarish bir hayajon beryapti. Va o'zimga hozir shu qabr azobiga oxirigacha chidab, poklan-da, jannatga kir, deyapman... Lekin, onajon, jannatning barcha ne'matlaridan iste'foda etishni xohlayotgan bo'lsangiz, xayrli amallaringizni ko'paytirishingiz lozim. Xayrli amallar - oxiratdagi sarmoya va boyligingiz. Ular bilan jannatdagi darajangiz yuksaladi va iste'foda etadiganingiz ne'matlar ham ko'payadi. Jannatda son-sanoqsiz ne'matlar bor, ammo tekin emas. Ular sarmoyangizga qarab beriladi. Sarmoyasi oz bo'lganlarga beriladigan ne'matlar ham, darajalari ham sarmoyasi ko'pligiga nisbatan boshqacha bo'ladi. Bu esa Alloh taolo adolatining natijasidir.

38 Onajon! Bilasizmi, bu yerda hamma ham menga o'xshab azoblanmaydi. Ba'zilar borki, qabrlari jannat bog'larini eslatadi. Bunday insonlar hayotlik chog'larida yaratilish g'oyalarini bilib, o'zlarini bu olamga tayyorlaganlar. Ya'ni, onajon, ular Allohning amr va qaytariqlariga quloq solib, qullik vazifalarini risoladagidek bajo keltirgan mo'minlardir. Ular qabrga (oxiratga) tayyorgarlik bilan kelganlar. Ularga ham erata-yu kech jannatdagi maqomlari ko'rsatiladi. Ularni qabr siqmaydi, aksincha, ohista silaydi. Qabrlarida juda tinch-xotirjam yotishadi. Dunyo hayotida tillaridan tushmagan yoki eshitganlari Qur'on, bir himoya vositasi deb bilganlari tahorat, hamma shirin uyquda yotganida istirohatlarini tark etib, uyqlarini bo'lib Alloh rizosi uchun o'qigan tahajjud namozlari, aytgan zikrlari hozir qabrlarida bittadan nur bo'lib, qabrlarini yoritib turibdi.

37. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam oxirgi xastaliklarida: Ey insonlar! Payg'ambaringiz irtiholini o'ylab xavotirlanayotganingizni eshitdim. Qaysi Payg'ambar yuborilgani ummati bilan abadiy qolganki, men siz bilan abadiy qolsam.

Billingki, siz ham menga qovushasiz. Uchrashadigan joyimiz esa Kavsar hovuzining bo yidir. U yerda men bilan uchrashishni xohlaganlar qo'llarini va tillarini gunohdan saqlasinlar, deganlar (Tajridi Sarih, 11/14-15).

38. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: Jannatda yuzta daraja bor. Har bir darajaning boshqa daraja bilan orasi osmon bilan yer orasi kabi keng. Firdavs bularning eng yuqorisidagidir. Uning ustida Arsh bor. Allohdan jannatni so'raganingizda Firdavsni so'ranglar (Kutubi sitta, 14/237).

39 O'sha amallar qabrlarini jannat bog'iga aylantirib yuborgan. Mana shunaqa, onajon, axir urug' ekmagani hosil yig' olmaydi-ku! Ular hayotliklarida ekkanlarining mevasini hozir yig' yaptilar, soyasida salqinlayaptilar. E'voh! Ammo men uchun endi oh-voh qilishning foydasi yo'q, onajon! Bu yerda yana bir toifa insonlar borki, ularga havas qilaman. Tuproq ularning jasadlarini hech narsa qilolmaydi. Jasadlari chirimay, bor holicha turadi. Hech qanday hayvon, qurt-qumursqa ularning tanalariga yaqinlasholmaydi. Ilon-chayonlar vujudlarini ilma-teshik qilolmaydi. Soppa-sog' hollarida jannatdek bog'larda yurishadi. Ular Payg'ambarlar, shahidlar va Alloh munosib ko'rgan Allohning do'stlari...

40 Onajon! Bu yer qabr, deyiladi. Kimdir g'am-qayg'u ichida jazosini oladi, kimdir jannat bog'larida baxtiyor hayot kechiradi.. Lekin, onajon, aslo Bu adolatdanmi? demang. Haqiqiy adolat mana shu! Bu yer o'zgacha bir olam, onajon! Barzax, qabr, deganlaridek umuman boshqa bir olam! Dunyoda bu yer haqida aytilgan gaplarning barchasi rost. Ammo tushuntirishning o'zi yetarli emas. Aslida bu yerni tushuntirish qiyin. Hatto men shu onda ko'rayotganimni bor holicha sizlarga ta'riflab berishga qiynalyapman. Chunki dunyo hayotidagi o'lchovlar bilan bu yerning o'lchovlari bir xil emas. Bir so'z bilan aytganda, juda og'ir bir hayot. Ayniqsa, men kabi gunohkorlar uchun... Qabrim meni siqyapti. Bu ham yetmagandek, boshimga gurzi bilan urilyapti. Juda ko'p azob chekyapman. Baqiryapman, faryod qilyapman. Onajon, oh-u' zorimni eshityapsizmi? Albatta, eshita olmaysiz. Holbuki, sizlardan boshqa hamma narsa bu achchiq faryodni eshitadi.

39. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyurdilar: Qur'ondan bir oyat eshitganga (bu oyat) qiyomat kunida nur bo'ladi (Ihyo, 1/292).

40. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: Juma kuni sizning eng fazilatli kuningizdir. Odam o'sha kuni yaratildi, sur shu kuni chalinadi va qiyomat o'sha kuni bo'ladi. Shu sababli bu kunda menga ko'p salotu salom ayting, muhaqqaq, sizning salovotingiz menga yetkaziladi, deganlarida, sahobalardan biri: Jasadigingiz chirigani holda bizning salovotimiz sizga qanday yetkaziladi? deya so'radi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: Muhaqqaqki, Alloh Payg'ambarlarning jasadlarini tuproqqa harom qildi, deb javob berdilar (Ibn Moja).

41 Bu azob qachongacha davom etishini ham bilmayman. Baribir umid qilyapman. Allohning rahmati kelsa, balki yaxshi amallarimdan, hech bo'lmasa, bittasi sababli azobdan qutulsam.

42 Chunki bu yerda azob ba'zilar uchun davomiy, ba'zilardan esa soqit bo'ladi. Shuning uchun men sizning duoingizga juda muhtojman. Bu g'ofil o'g'lingizning qutulishi uchun ko'p-ko'p duo qiling, onajon!

Qabrda azoblanishga sabab bo'lgan ba'zi xatolarimni bilishni xohlasangiz kerak, onajon. Bu xatolarning bir qismi hayotimda uncha e'tibor berilmagan narsalar. Hozir ularning muhimligini tushunib yetdim. Biroq bundan foyda yo'q. Qabr azobimni orttirgan narsalarga, masalan, siydikka e'tibor edim. Bu najasdan behuzur bo'lmasdim. Shunga juda yengil qaraganim uchun hozir azobini tortyapman.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam so'zlariga quloq solmay qilgan g'iybatlarim bor. Azobimni orttirgan eng yomon amallarimdan biri ham shular.

41. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam xabar berdilar: So'ng uning (kofir yoki munofiqning) ensasi ostiga chunonam uriladi, bu (zarbning og'ir idan) shunaqangi faryod qiladiki, uning faryodini inson va jinlardan tashqari unga yaqin har bir maxluqot eshitadi (Imom Buxoriy).

42. Gunohkor mo'minlardan ba'zi gunohi kamlari ozgina azoblangandan keyin yoki bir duo, sadaqa kabilar, yoki Allohning marhamati bilan azobdan qutulishadi (Al-Luqoniy).

43 Shuningdek, birovdan ozgina qarz olgan edim, shuni ham qaytarmasdan keldim bu yerga. Zimmamdagi o sha qarz ham qabr azobimni orttiriyapti. Nima bo Isa ham, u kimsaga qarzimni to lab, meni bu azobdan qutqaring. Zero, qarzim qaytarilmagunicha azob davom etaveradi.

44 Sizlarning baland ovozda yig lashingiz, yuzlarni yumdalab, sochlarni yulishingiz ham mening bu yerdagi azobimni orttiriyapti.

43. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam dedilar: Shu ikki narsa qabr azobiga sabab bo ladi: g iybat, bavl. Bulardan qattiq saqlaning (Bayhaqiy).

44. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam aytdilar: Qarz bilan vafot etgan (kishi) uning nomidan qarzi to lanmagunicha qabrda garovga olingan kabidir . Boshqa bir hadisda: Qarz bilan o lgan kishi qabrda bog' liqdir. Uni qutqaradigan yagona chora qarzining to lanishidir , deyiladi. Yana bir hadisda esa: Alloh taolo nazarida bir qulning Alloh ta qiqlagan gunohi kabiralardan keyin birga olib keladigan eng katta gunohlardan biri qarzini uzmagan holda o lishidir , deyiladi (Kutubi sitta , 6/181).

45 To'g'ri, ayriliq uchun qayg uring, ammo isyon darajasida faryod qilmang. Yana, onajon, hatto aytishga uyalyapman, ba zan mayda-chuyda dunyo manfaatlari uchun yolg on gapirib turardim. Ayniqsa, bemalol, ehtiyoj zarurati bahonasida yeyilgan ozgina foiz pullari ham meni parishon etdi. Shu sababli azobim oshib boryapti.

Onajon! Yana sizning xabaringiz yo'q, bir-ikki marta o g irlik ham qilgan edim. Arzimas narsalar edi, lekin nima bo Isa ham, nomi o'g'irlik. Bilaman, agar bundan boxabar bo lganingizda meni jazolardingiz... Koshki boxabar bo lsaydingiz, hisob-kitob bu kunga qolmagan bo lardi. Shu narsalar azobimning kuchayishiga sabab, chidash qiyin bo lib qoladi. Shunda ham ba zan shukr qilaman, oyijon! Chunki bu yerda shu darajada kuchli azob chekayotganlar borki, ularning faryodidan hatto men iztirobga tushaman. Bular mendan ham gunohkorroq kishilar... Ulardan kimdir hayotligida yolg on guvohlik bergan, nomusli ayollarga tuhmat qilgan, insonlarga tili bilan ozor yetkazgan, yetimning haqqini yegan, birovlarining molini nohaq o zlashtirib olgan, hiyla-makr qilgan, boshqa musulmonlarning xato va yashirin ayblarini oshkor etgan, kibr-havoga berilgan, ikkiyuzlamachilik, riyokorlik qilgan, qarindosh-urug lari bilan aloqani uzgan, faqir, bechorahol, yetim kimsalarga hamda hayvonlarga rahmi kelmay, aziyat yetkazgan, odam o ldirish kabi Alloh bergan jonga suiqasd qilgan...

Ha, onajon, bu yerdagi azob ana shunaqa. Dunyoda qilgan gunohi darajasiga ko ra har kimning azobi og ir yoki yengil bo ladi. Shu bois fursat borligida quyidagi eslatmalarimni yaxshilab yodingizda tuting, onajon: - Qur onda va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislarida nima deyilgan bo Isa, ularning hammasiga qat iyan ishoning. Ularning bari to g ri... Va buyurilganini o z o rnida ado eting;

46 - men yo l qo ygan xatoni siz qaytarmang, hayotligimda oldimga sochib tashlangan ne matlar nima uchun berilgani haqida o ylab ko rmagan edim, holbuki, ular imtihon uchun berilganini bu yerga kelganimda yaxshiroq tushundim;

45. O'lik qabrda unga navha qilinishi (bir nechta yaxshiliklarini eslab ovoz chiqarib yig'lanishi) sababli azoblanadi (Imom Buxoriy rivoyati).

46. Payg'ambar o zi sizga ato etgan narsani olinglar, u zot sizlarni qaytargan narsadan qaytinglar va Allohdan qo rqinglar! Albatta Allohning jazosi qattiqdir (Hashr surasi, 7-oyat).

47 - farz va vojib ibodatlarini bekamu ko st va to xtovsiz ado eting, imkon bo ldi, deguncha nafl ibodatlar bilan bu yerga olib kelinadigan ozuqani boyiting; - yaxshi inson bo ling, bu yerga to la-to kis yaxshiliklar bilan keling; - bu yerda amalingizga ilova qilinadigan hech narsa yo'q, butun sarmoyangiz dunyodan olib keladigan yaxshi yoki yomon amallardan iborat, xolos, shuning uchun bu yerga dunyodagi solih amallaringiz bilan sarmoyangizni boyitib kelishingiz lozim;

- hazrat Ali roziyallohu anhu: Dunyoda amal bor, hisob yo'q, oxiratda hisob bor, amal yo'q, deya ifodalagan haqiqatni men hozir boshimdan kechirib tushundim, mening holimga tushmaslik uchun sizga yana bir bor eslatyapman, bu gaplarimga e tiborsiz bo limglar; - har bir namozdan keyin qabr azobidan saqlanish uchun duo qiling;
48 - o lim xastaligiga chalinganingizda Ixlos surasini ko p o qing;

47. (Ey insonlar, Alloh) sizlarning qaysilaringiz chiroyliroq, yaxshiroq amal qiluvchi ekaningizni imtihon qilish uchun o lim va hayotni yaratgan Zotdir (Mulk surasi, 2-oyat). Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar: Dunyo oxiratning ekinzoridir .
48. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday buyurganlar: Sizlardan birontangiz namozini bitirganda bu to rt narsadan panoh so rasin: jahannam azobidan, qabr azobidan, o lik va tiriklarning sharri - yomonligidan, Masih Dajjoning fitnasidan (Riyozus-solihin , 14/21). Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: Yo Rabbim! Qabr azobidan Sendan panoh so rayman , deb duo qilar edilar (Tajridi sarih , 4/503).

49 - o lim kelganida o zingizni yo'qotib qo ymang, Alloh taoloning rahmatidan va sizni afv etishidan umid qiling hamda eng oxirgi nafasingizni ham shu umid bilan chiqaring. Chunki qanday vafot etsangiz, qiyomat kuni shunday tirilasiz;
50 - kalimai tavidni ko p o qishni esingizdan chiqarmang;

49. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: (Qabrning siqishidan) bir marta bo lsa, o lim xastaligida Ixlos surasini o qigan kishilar mustasnodir , deb marhamat qilganlar (Al-Idaviy).
50. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyuradilar: Sizlardan birontangiz Alloh haqida husni zonda (yaxshi gumonda) bo lmasdan oxirgi nafasini bermasin (Kutubi sitta , 16/260). Har bir qul nima bilan o lsa, o sha narsa bilan tiriltiriladi (Kutubi sitta , 13/73).

51 - har doim Qur on o qib turing, o qigan Qur on savobidan menga ham baxshida qilsangiz, juda ham mamnun bo laman;
52 - gunohingiz qanchalik kam bo lsa, jahannamdagi azob ham shunchalik kamayadi,

51. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyurdilar: O liklaringizni (Jon taslim qilayotganlaringizni) La ilaha illalloh , deyishga undang . Boshqa bir hadisda esa: Kimning so nggi so zi La ilaha illalloh bo lsa, jannatga kiradi , deb marhamat qildilar Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam (Kutubi sitta , 15/81-82).
52. O liklaringiz uchun Yosin o qinglar (Tajridi sarih , 4/554).

53 shu sababli bu olamda jazoingiz yengil bo lishi yoki jahannamda yonmaslik uchun gunohlardan qoching;
- oh, onajon, hayotligimda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: Qabr jannat bog' laridan bir bog' yoki jahannam chuqurlaridan bir chuqur , degan gaplarini eshitgan edim, qanchalar to g ri va ogohlantiruvchi xabar ekan, afsuski, vaqtida tushunib yetmagan, g aflat uyqusidan uyg onolmagan edim, Alloh taolo va Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yo riqlarini bir chetga qo yib, dunyo jozibalariga berilib, shaytonning yo liga yurgan edim, mana endi qabrim men uchun jahannam chuqurlaridan bir chuqurga aylandi; - qul haqqiga qattiq rioya qilinglar, arzimas manfaatlar uchun birovning dilini og ritmanglar, kechiruvchi, ochiq ko ngilli bo ling, bu yerda foydasini ko rasiz va muflisning ahvoliga tushmaysiz;
54 - hasad, g iybat, fisq-fasod qilib, qabr azobiga sabab bo ladigan gunohlarni ko paytirmanglar;

53. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bunday dedilar: (Do zaxiylar darajada darajadir.) Bir qismi borki, olov ularning to pig igacha chiqadi, bir qismi borki, tizzalarigacha kuydiradi, bir qismi borki, bellarigacha chiqadi, bir qismi borki, bo g zigacha (olov ichida) bo ladi (Kutubi sitta , 1414/271).
54. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyuradilar: Kimning zimmasida birodariga nisbatan irz (or-nomus) yoki boshqa bir sababidan haqqi bo lsa, dinor va dirham topilmaydigan qiyomat (va hisob-kitob bo ladigan) kun kelmasidan avval shu yerdaligida halollashsin. Aks holda solih amali bo lsa, o sha kunda ko rsatgan zulmi sifatida undan olinadi. Agar hasanoti bo lmasa, do stining (haqqini olgan kishining) gunohidan olinadi va unga yuklanadi (Kutubi sitta , 14/171).

55 - onajon, bu yerga gunohlar bilan kelmaslik uchun vaqtida tavbai nasuh bilan tavba

qiling;

56 - bu yerga olib kelinadigan eng qimmatli ozuqa Alloh qo rquvidir, Allohdan sevgi va umid bilan qo rqing, bu siz uchun eng muhim ozuqa bo ladi, bu yerda sizga juda foydasi tegadi, vaqti kelganida Yo Rabbim, qo rqqanim uchun amrlaringga amal qildim va haromlardan uzoqlashdim ,

55. G iybatdan saqlaning, zero g iybat zinodan ham shiddatliroq. Chunki zino qilgan kishi tavbakor bo ladi, Alloh ham uni avf etadi. Biroq g iybat qilingan kishi kechirmaguncha g iybat qilgan avf etilmaydi (G azzoliy, Ihyo , 3/317).

56. Ey mo minlar, Allohga xolis tavba qilinglar (Tahrim surasi, Oyat).

57 deya olasiz; - shuningdek, bu yerga aslo qarz bilan kelmang, juda qiyin ahvolga tushib qolasiz;

58 - sizlardan yana bir ilinjim shuki, bizni ziyorat qilish uchun kelganda salom berishni aslo unutmanglar,

57. Hazrat Ali roziyallohu anhu qabristonga kirganlarida u yerda yotganlarga bunday xitob qilardi: Qoldirib ketganingiz uylarni endi (boshqa) qo llar oldi. Mol-davlatingiz bo lishib bitirildi. Xotinlaringizni boshqalar nikohlab oldi. Bular biz tomonda bo lganlari. Oh! Koshki biz ham siz tomonda bo layotganlarni bilolsaydik! Jonim qudrat qo lida bo lgan Allohga qasamki, ularning gapirishlariga ruxsat berilganida, eng xayrli ozuqa Allohdan qo rqishdir, deyishar edi (Ibn Abdirabbih al-Iqdul-Farid; III, 236, Riyozus-solihin , 3/459).

58. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: Mo minning ruhi qarzi berganga bog' langandir (Ibn Moja).

59 barcha sadaqa va xayrli amallaringizning savobini bizga bag ishleng, qo rqmang, sizning savobingizdan hech narsa kamaymaydi;

- Qabrni ziyorat qilishda juda ehtiyot bo ling, tag in savob o rniga gunoh orttirib olmang, shuni eslatib qo yay, qabr ahlidan hech narsa so ramanglar, biz sizlarga biror narsa beradigan ahvolda emasmiz, aksincha, biz sizlarning duolaringizga muhtoj bo lib turibmiz;

60 - Qabr ziyorati sizlarni o ylantirsin, o limdan keyingi hayotni, qabr hayotini o ylang, Kecha kim edim, bugun kimman, ertaga nima bo laman? deya mulohaza qiling, qabr ziyoratlari aslida siz uchun lozim;

59. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam Madina aholisining qabristoniga kirganlarida qabrlarga yuzlanib: Assalomu alaykum, ey qabr ahli! Alloh sizni ham, bizni ham mag firat etsin , dardilar (Kutubi sitta , 15/135).

60. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam bunday buyurdilar: (Ashobim), sizni qabrlarni ziyorat etishdan man qilgan edim. Lekin hozir (Payg'ambaringiz) Muhammadga onasining qabrini ziyorat etish uchun ruxsat berildi. Siz ham qabrlarni ziyorat eting. Chunki bu ziyorat sizga oxiratni eslatadi (Imom Muslim). Qabr toshlaridagi yozuvlardan biri: Ey qabrimni ziyorat qilgan ziyoratchi! Holimni o ylayapsanmi? Kecha men ham sen kabi edim, Ertaga sen ham men kabi bo lasan!..

61 - ziyorat payti qabrimizni oyoq osti qilmanglar, ustimizga o tirmanglar, bizni bezovta qilasiz, ammo qabr chetiga o tirish mumkin;

62 qabr ziyoratiga kelganda mutavoze bo linglar, aslo kibrga berilmanglar, bir kun sizlar ham bizning holimizga tushishni tafakkur qilinglar;

61. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam bunday dedilar: Bir cho g ning yoki bir qilich ustida yurish yoxud oyoq kiyimimni oyog im bilan tikish menga bir musulmonning qabri ustidan yurishdan ko ra afzalroq. Xoh qabrlar orasida tahorat buzsangiz, xoh bozor o rtasida (men uchun ikkinchisi ham, birinchisi ham bir) (Kutubi sitta , 17/134). Sizdan birortangizning terisigacha tegadigan darajada kiyimni kuydiradigan cho g ning ustida o tirish qabr ustida o tirishdan yaxshiroq (Imom Muslim rivoyati).

62. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam qabristonga kirganlarida salomdan keyin bunday der edilar: Sizlar bizning salafarimizsiz, biz ham orqangizdan boramiz (Kutubi sitta , 15/135).

63 - ziyorat payti yangi chiqqan maysalarni yulmanglar, daraxtlarni kesmanglar, imkon bo lsa, daraxt ekinglar, ularning bizga juda ko p foydasi bor, ular sababli qabr azobimiz ma lum muddat engillashadi;

64 - qabr tepasida aslo ochiq-sochiq dod-faryod qilmanglar, bunday amallar bizning halovatimizni yo'qotadi;

63. Qabristondagi maysalarni yulish va daraxtlarni kesish makruhdur (An-Nahlaviy).

64. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yuzini yumdalagan xotinni, yoqasini yirtgan xotinni, o ldim-kuydim, deb umidsizlikka tushgan xotinni la natladilar (Kutubi sitta , 17/139).

65 - ha, yana bir narsani ham aytib qo yay, o lganimdan keyin aza tutmaganingiz uchun juda xursand bo ldim, men uchun aza ochganningizda, shu sababli yana azoblanardim;

66 - qabr ziyoratiga kelganda bizni o ylanglar, qabrimizning shaklini emas, shuning uchun qabrni bezashga harakat qilmanglar, bizga hech qanday foydasi yo'q, aksincha, isrofgarchilikka yo l qo yib, gunohga botasizlar; - ustimizga maqbara ham qurmanglar, biz maqbaralar bilan emas, duolar, xayrli amallar bilan eslanishni istaymiz;

65. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bunday dedilar: Aza tutish johiliyat ishlaridan biridir. Zero, aza tutgan xotin o lmasidan oldin tavba qilmasa, qiyomat kuni egnida qatrondan ko ylak va uning ustidan jahannam olovidan bir ko ylak kiydirilgan holda tiriltiriladi (Kutubi sitta , 17/138).

66. Hazrat Jobirdan roziyallohu anhu rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qabrning ustiga biron narsa qurishni ta qiqladilar (Kutubi sitta , 17/133).

67 - qabrimiz ustida duo qiling, ammo aslo qurbonlik so ymanglar, Alloh rizoligi uchun so yilishi lozim bo lgan qurbonlik qabr tepasida (yoki maqbaralarda) so yilsa, makruh ish qilingan bo ladi;

68 - qabr ziyoratiga berilib ketib, uning ustida namoz o qimanglar, bu namozning biz uchun hech qanday foydasi yo'q, aksincha, siz uchun katta gunohdir;

67. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam: Qabrda mol, tuya, qo y so yish Islomda yo'q , deya qabr va maqbaralarda qurbonlik so yishni ta qiqladilar (Abu Dovud).

68. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan oldin bir xavfga e tibor qaratib: Allohning la nati yahudiy va nasroniyarga bo lsin, ular Payg'ambarning qabrini ibodatxona qilib olishdi , deya ziyoratchilarni qabr tepasida namoz o qishdan qaytarganlar.

69 - mozor boshida sham ham yoq manglar, bunga o xshash boshqa bir dinning odatini qilish, to g risi, bema ni bir harakat, sizlarning duo va o qigan oyatlaringiz qabrimizni yoritadi, shamlar emas. Bunday bema ni odatlardan voz kechinglar; - yana birovlar qabrga yonlarida duolar yozilgan tumorlar bilan kelishadi, bularning hech qanday foydasi yo'q, bekordan-bekorga olib kelmanglar, bu yerda faqat kishining hayot paytidagi taqvosi va yaxshi amallari foyda beradi, ya ni haqiqiy oxirat ozuqasi kishining amallaridir;

70 - shuningdek, qabrimiz tepasiga, daraxtlarga latta-puttalarni bog' lamanglar, ularning ham bizga hech qanday foydasi yo'q, sizlar esa ko plab gunoh orttirib olasizlar, eski irim-sirimlarning asoroti bo lgan bunday bid atlarni qilmanglar, bu yerga kelgan paytda o sha bema ni ishlaringizdan afsus chekasizlar; - Ba zan ziyoratga kelganlarning qabrimiz tuprog idan olayotganini sezamiz, bu bilan nima qilmoqchi bo lishadi? Ziyoratga loyiq ko rilgan qabr egalari bu mavqe ga amallari bilan erishadi, tuproqlari bilan emas, bu yanglish amalni aslo qilmanglar; - sizdan avval vafot etgan yaqinlaringizga salom yuborishingiz mumkin, agar qabrdagi ahvol va darajalari bir xil bo lsa, oramizga yangi qo shilganlar salomingizni yaqinlaringizga yetkazadilar;

69. O likka mozorgacha uch narsa ergashib boradi: oilasi, mol-davlati va amali. (Ulardan) ikkitasi orqaga qaytadi, biri abadiy qoladi. Oilasi va mol-davlati orqaga qaytadi, amali u bilan boqiy qoladi (Imom Termiziy rivoyati).

70. Muhammad ibnul Munkadir aytadi: Hazrat Jobirning oldiga kirdim. Joni uzilayotgan edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bizdan salom yetkaz , dedim (Kutubi sitta , 17/108).

71 - solih amallarni (Allohga xush yoqadigan amallarni) ko paytiringlar,

72 bu sizning dunyo va oxirtda qutulishingiz uchun eng qimmatli sarmoya bo ladi; - kamtar bo linglar;

71. Faqat (qay) bir zotlar imon keltirsalar va yaxshi amal qilsalar, ana o shalar uchun bitmas-tuganmas ajr-mukofot bordir (Vat-tiyn surasi, 6-oyat).

72. Alloh uchun bir daraja tavoze qilgan kishini Alloh taolo ham bir daraja yuksaltiradi. Uni Firdavs jannatining eng yuqori joyigacha chiqaradi (Tanlangan hadislar , 56-bet).

73 - oldi-sotdi vaqtida behuda qasam ichmanglar;

74 - ota-onangizga yaxshilik qiling, ularning ko ngliga qarang, xayrli duolarini oling, qarindosh-urug larning ziyoratiga beparvo bo l m ang lar;

73. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bunday dedilar: Kimki bir musulmonning molini nohaq olish uchun qasam ichsa, Allohning azobiga uchraydi ; Tijoratda (yolg on) qasam molga rag batni orttiradi, (aslida) foydani kamaytiradi (Imom Buxoriy rivoyati).

74. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: Rizqning ko payishini, umrining uzayishini istagan (odam) ota-onasiga ehson va ikrom qilsin, qarindoshlarini ziyorat etsin (Tanlangan hadislar , 153-bet). Ular (ota-onang) sening jannating yoki jahannamingdirlar (Kutubi sitta , 17/486).

75 - kechiruvchi bo linglar, foydasini ko rasizlar;

76 - aslo boshqalarni aldamanglar;

75. U (taqvodor zotlar) yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, g azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarini) avf etadigan kishilardir. Alloh bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi (Oli-Imron surasi, 134-oyat). Allohga bergan ahd-paymon va qasamlarini ozgina qiymatga sotib yuboradigan kimsalar uchun oxirtda hech qanday nasiba yo'qdir. Qiyomat kuni Alloh ularga so z qotmaydi, ularga (rahmat nazari bilan) boqmaydi va ularni (gunohlardan) poklamaydi. Ular uchun alamli azob bordir (Oli-Imron surasi, 77-oyat).

76. Har qaysi banda dunyoda boshqa bir bandaning aybini yopsa, qiyomat kuni Alloh ham uning aybini berkitadi (Riyozus-solihin , 1/281).

77 - bir-biringizdan ayb qidirmanglar;

78 - jamoat namozidan qolmanglar, juda ko'p foyda topasizlar

78. Ertalab va kechqurun masjidga borgan kishining har borib-kelishida Alloh jannatni tayyorlaydi (Riyozus-solihin , 2/379).

79 (erkaklar uchun); - xasislik qilmanglar, Allohning bergan ne matlaridan to'g'ri foydalaninglar;

80 – jo'mard bo'linglar, biroq isrofdan saqlaninglar, hasadgo ylikka sababchi holatlar sizlar uchun zarar bo'lishini unutmanglar;

79. Kim o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o'shalar najot topguvchilardir (Tog obun surasi, 16-oyat).

80. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: Hamyoning og'zini bog'lama, sening rizqing ham bog'lanadi. Infoq qil, sanama, senga ham sanoq bilan beriladi. Molingni berkitma, sening rizqing ham berkitiladi, deb marhamat qiladilar (Riyozus-solihin , 1/580).

81 - juma namozini aslo o'tkazib yubormanglar

82 (erkaklar uchun); - orangizda arazlashganlar bo'lsa, ularni yarashtirib qo'yinglar;

81. Ey mo'minlar, qachon juma kundagi namozga chorlansa (ya ni, azon aytilsa), darhol Allohning zikriga (ya'ni, juma namozini ado qilish uchun) shoshib boringlar va oldi-sotdini tark qilinglar! Agar biladigan bo'lsangizlar, mana shu o'zlaringiz uchun yaxshiroqdir (Juma surasi, 9-oyat). Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham bunday buyuradilar: Bir kishi chiroyli tahoratini olib, so'ng jumaga borsa, xutbani jim tinglasa, uch kun ortig'i bilan bu jumadan keyingi jumagacha bo'lgan vaqt ichidagi gunohlari mag firat qilinadi (Riyozus-solihin , 2/440). Boshqa bir hadisda esa: Kim jumani zaruratsiz uch marta tark etsa, Alloh uning qalbini muhrlaydi, deyiladi (Kutubi sitta , 9/455).

82. Sadaqaning eng afzali ikki kishining o'rtasini isloh qilish (Tanlangan hadislar , 236-bet).

83 - arazlashib yurmanglar;

84 – o'zaro to'g'ri muomalada bo'linglar;

83. Kim uch kundan ortiqroq arazlasa, so'ng o'lsa, jahannamga kiradi: Kim birodaridan bir yil arazlasa, xuddi uning qonini to kkan kabi bo'ladi (Kutubi sitta , 9/455).

84. Bir musulmonni aldagan yoki unga zarar yetkazgan, unga hiyla qilgan bizdan emas (Kutubi sitta , 16/353).

85 - davlat mulkini o'zlashtirib olmanglar, davlat mulkini olganlar bir kishining emas, son-sanoqsiz kishilar haqiga xiyonat qilishini yodingizda tutinglar;

86 - tilingizga hokim bo'linglar, birovning dilini og'ritmanglar, dilozor bo'lmanglar, yolg'on gapirmanglar;

85. Kim (davlat moliga) xiyonat qilsa, qiyomat kunida (Allohning huzuriga) qilgan xiyonati bilan birga kelur (Oli-Imron surasi, 161-oyat).

86. Insonning salomatligi tilini muhofaza etishidadir .

87 - to'g'ri so'zli bo'linglar;

88 - foiz yemanglar, foiz bilan shug'ullanmanglar;

87. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan «Eng fazilatli inson kim?» deb so'rashganida, u zot alayhissalom: «Qalbi mahmum (pok), to'g'ri so'zli banda», dedilar. Sahobalar: «To'g'riso'zlikning nimaligini bilamiz, mahmumul qalb nima degani?» deb so'rashdi. «Mahmumul qalb Allohdan qo'rqadigan top-toza qalbdir, ichida gunoh yo'q, zulm yo'q, adovat yo'q, hasad yo'q», deya marhamat qildilar Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam («Kutubi sitta», 17/627)

88. «Ey mo'minlar, Allohdan qo'rqingiz va agar chindan mo'min bo'lsangizlar, sudxo'rlik sarqitlarini tark qilingiz» (Baqara surasi, 278-oyat).

89 - faqirlarni himoya qilinglar;

90 - harom yemanglar, farzandlaringizga ham harom yedirmanglar;

89. «Menga zaiflaringizni topinglar. Zero, sizlar zaiflaringiz tufayli yordam va rizqqa erishasiz» («Kutubi sitta», 6/192).

90. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytganlar: «Bir toifa insonlar borki, Allohning mulkidan nohaq yo'l bilan o'zlashtirib olishga harakat qiladilar. Holbuki, bu (o'zlashtirib olingan mulk) qiyomat kuni ularga olov bo'ladi, boshqa narsa emas» («Kutubi sitta», 14/306).

91 - xasta qo'shnilaringizni ziyorat qilinglar;

92 - xayrli ishlarni, xususan, qoladigan xayrlarni davom ettiringlar, shu tariqa do'zax olovidan saqlanasizlar;

91. «Kim tahorat olib va tahoratni mukammal qilsa, savob umidida musulmon birodarini ziyorat etsa, do'zaxdan yetmish yillik masofa uzoqlashtiriladi» («Kutubi sitta», 9/434)

92. «Sizlardan har biringizga Rabbi tomonidan tarjimonsiz, to'g'ridan-to'g'ri xitob etiladi. Kishi o'sha payt (do'zaxdan) qutulish yo'lini qidirib o'ng tomoniga qaraydi, tirikligida yuborgani (yomon) amallaridan boshqa hech narsani ko'rmaydi. Chap tomoniga qaraydi, u yerda ham tirikligida qilgan (yomon) amallaridan boshqa hech narsani ko'rolmaydi. Oldiga qaraydi, u yerda ham tirikligida qilgan (yomon) amallaridan boshqa hech narsani ko'rolmaydi. Oldiga qaraydi, qarshisida (uni kutib turgan) do'zaxni ko'radi. (Ey bu dahshatli kunga iymon keltirgan mo'minlar!) Yarimta xurmo bilan bo'lsa ham, o'zingizni jahannamdan saqlanglar. Shuni ham qilolmasangiz, chiroyli so'z bilan saqlaning» («Kutubi sitta», 1/4185).

93 - hayvonlarga ham mehribon bo'linglar;

94 - o'zaro salomlashib yurishni to'xtatmanglar, hamma bilan salomlashinglar;

93. «Marhamatli bo'lganlarga Rahmon (ya'ni, marhamat egasi Alloh) marhamat qiladi. Yerda marhamat qilingki, osmonda bo'lganlar ham (farishtalar) sizga marhamat etsinlar...» («Kutubi sitta», 9/301).

94. «Mo'min bo'lmaguningizcha jannatga kirolmaysiz. Bir-biringizni sevmaguningizcha mo'min bo'lolmaysiz. Sizni xushnud etadigan narsani aytaymi? O'zaro salomni yoyinglar» («Riyozus-solihin», 2/228).

95 -xayrli ishlarni boshlayotganda «Bismillah» aytishni unutmanglar;

96 -barcha yomonliklarning onasi, boshingizga turli balolarni olib keladigan, dunyo-yu oxiratda xarob etadigan ichkilikdan, giyohvand moddalardan uzoq yuringlar;

95. «Bismillahir rohmanir rohim» bilan boshlanmagan har bir xayrli ish kesikdir (natijasiz qoladi).

96. «Ey mo'minlar, aroq (mast qiladigan ichkilik ichish), qimor (o'ynash), tiklab qo'yilgan butlar (ga sig'inish) va cho'plar (bilan folbinlik qilish) shayton amalidan bo'lgan harom ishdir. Bas, ularning har biridan uzoq bo'lingiz, shoyad najot topasiz!» (Moida surasi, 90-oyat.) Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham: «Ichkilik barcha yomonliklarning onasidir. Ichkilikka mubtalo bo'lgan kishi jannatga kirmaydi», deb marhamat qilganlar («Kutubi sitta», 17/447-448).

97 - muborak kechalar qutulishingiz uchun vasiladir, bedor o'tkazishdan aslo g'ofil qolmanglar;

98 - foyda qilayotganda ham, sarflayotganda ham qanoatli bo'linglar;

97. «Besh kecha borki, ularda qilingan duolar qaytarilmay qabul qilinadi: rajabning ilk kechasi, sha'bonning o'rtasidagi kecha, juma kechasi, ramazon va qurbon hayiti kechasi» («Fayzul-Qodir», III, 454-bet).

98. Abu Hurayradan roziyallohu anhu rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Shu so'zlarni amal qilish yoki ular bilan amal qilish yo ular bilan amal qiladiganga o'rgatish uchun kim mendan olmoqchi?» deya so'raganlarida, «Men, yo Rasululloh!» dedim. Rasuli akram qo'limdan tutib: «Haromdan saqlan! Insonlarning eng ko'p ibodat qiluvchisi bo'lasan. Alloh taoloning senga ajratganiga rozi bo'!! Insonlarning eng badavlati bo'lasan. Qo'shningga yaxshilik qil! Haqiqiy musulmon bo'lasan. Ko'p kulma! Chunki ortiqcha kulish qalbni o'ldiradi», dedilar» («Tanlangan hadislar», 120-bet).

99 - kichik gunohlarni yengil sanamanglar, keyinchalik katta zarar ko'rasizlar;

100 - zulm qilmanglar, mazlumning duoibadini olmanglar;

99. «Xabaringiz bo'lsin, shayton shu shahringizda o'zini abadiy qolishini sezgan. Lekin siz e'tibor bermagan narsalaringizda unga itoat etishda davom etib, uni mamnun qilasiz» («Kutubi sitta», 1/151). «... Kichik gunohlardan saqlaning... Zero, ular birlashib egasini halok qiladi» («Kutubi sitta», 16/334).

100. «Mazlumning badduosidan ehtiyot bo'ling, hatto u kofir bo'lsa ham. Zero, uning duosi oldida parda yo'q» («Kutubi sitta», 5/503).

101 - misvokning foydasini bu yerda ham ko'rasiz, bu go'zal sunnatni ado etinglar;

102 - nafl ibodatlarni ko'p-ko'p qilinglar, juda katta foydasi borligini aniq ko'rasizlar, ehtiyojmand bo'lgan bir paytda sizga qimmatli sarmoya bo'ladi;

101. «Misvok ishlatib. Chunki misvok og'izning toza bo'lishiga va Rabbingizning rizqiga sabab bo'ladi»; «Misvoklanib o'qilgan namoz misvoksiz o'qilgan namozdan yetmish karra afzal» («Tajridi sarif», 3/37). Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam jonlari uzilayotganda ham misvok ishlatganlar.

102. «Qiyomat kuni kishi amallar orasida oldin namozning hisobini beradi. Bu hisob yaxshi bo'lsa, qutulib qoladi, demakdir. Bu hisob buzilgan bo'lsa, xusronga tushadi. Agar farzlarda kamchiligi bo'lsa, Alloh taolo: «Qaranglar-chi, qulimning (amal daftariga yozilgan) nafl namozlari bormi?» deb so'raydi. Shu tariqa farzning kamchiliklari to'ldiriladi. So'ng xuddi shu tarzda boshqa amallari hisob-kitob qilinadi» («Kutubi sitta», 14/175).

103 - namozni aslo tark etmang, kechiktirmang, bekamu-ko'st va davomli ado etinglar. Ha, onajon, namozga ehtiyot bo'ling! Chunki bu yerda amal daftaringizda farz namozi kam chiqsa, boshqa amallaringizga ham qaralmaydi,

104 namozlarni qoldirmasdan, o'z vaqtida o'qish bilan birga uning fayzini albatta hayotingizda aks ettiring, zotan namoz sizni barcha yomon narsalardan va iymonsizlikdan uzoqlashtirib,

103. «Menga bildirilishicha, (qiyomat kuni) qulning birinchi qaraladigan amali namozdir. Agar namozi qabul qilinsa, qolgan amallariga qaraladi. Agar namozi qabul qilinmasa, boshqa amallarining hech qaysisiga qaralmaydi» («Kutubi sitta», 14/176).

104. «(Ey Muhammad alayhissalom), siz o'zingizga vahiy qilingan Kitob - Qur'ondan bo'lgan (oyatlar)ni tilovat qiling va namozni to'kis ado qiling! Albatta namoz buzuqlik va yomonlikdan to'sur. Aniqki, Allohni zikr qilmoq (barcha narsadan) ulug'roqdir. Alloh qilayotgan ishlarinigizni bilib turur» (Ankabut surasi, 45-oyat).

105 o'rnak bo'ladigan musulmonga aylantirishi lozim, aks holda namozingiz rasmiyatchilikdan iborat bo'lib, befoyda harakatdan farqi qolmaydi.

106 Ro'za tutayotganda ham shu mezonga e'tibor beringlar. Alloh va'da bergan mukofotga erishish hamda xolis Alloh rizosi uchun ro'za tutishingiz kerak. Aks holda holimga tushasizlar. To'g'ri, ramazon oyida men ro'za tutardim, lekin o'rganib qolingan g'iybatdan tiyilmasdim. Ba'zan esa ro'zador bo'lsam-da, yolg'on gapirardim. Arzimas narsalar uchun yo'l qo'ygan xatolarim hozir menga katta to'siq bo'lyapti.

105. «Bas, namozlarini «unutib» qo'yadigan kimsalar bo'lgan «namozxon»larga halokat bo'lgay» (Mo'uvn surasi, 4-5-oyatlar).

106. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar: «Qanchalab ro'za tutganlar borki, tutgan ro'zalaridan ochlik va chanqoqdan boshqa foyda ko'rmaydilar» (Nasaiy). «Besh narsa ro'zani buzadi (savobini kamaytiradi): yolg'on gapirish, g'iybat qilish, fitna-fasod chiqarish, yolg'on qasam ichish, shahvat bilan qarash» («Ihyo», 1/661).

107 Mening g'aflatimga voy!

- Qur'on o'qinglar, chunki bu yerda qabrni eng ko'p yorituvchi o'qilgan Qur'on nuri hisoblanadi. Bu nur mening armonim. Siz ham g'aflatda qolib, menga o'xshab afsus-nadomat qilmang; - Qur'onni ko'p o'qinglar, chunki u eng buyuk shafaoatchi bo'ladi, 108 lekin juda ehtiyot bo'linglar, faqat Qur'on o'qishning o'zi kifoya emas, uning amr va ta'qiqlariga bo'ysunish lozim,

107. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: «Alloh nazdida Qur'ondan ustunroq shafaoatchi yo'q, na payg'ambar, na farishta va na boshqalar» (Imom Tabaroniy).

108. «Seni yomonlikdan man etguncha Qur'onni o'qi. Agar yomonliklardan to'smayotgan bo'lsa, Qur'on o'qigan hisoblanmaysan» (Imom Tabaroniy).

109 bo'ysunmasangiz, Qur'on o'qib ham gunoh qilgan bo'lasiz, bu muborak kitobning la'natiga uchraysiz,

110 Qur'onda bildirilgan halol va haromlarga e'tibor beringlar va ularni yaxshi bilib olinglar, aks holda o'zingizga qiyin bo'ladi;

109. «Qancha-qancha Qur'on o'qiganlar borki, Qur'on ularni la'natlaydi» («Ihyo», 1/777).

110. «Qur'on harom qilgan narsalarni halol, deb tanigan Qur'onga iymon keltirmabdi» (Imom Termiziy).

111 Onajon, opam va singillarimga ham ayting, kiyim-kechagiga e'tibor berishsin, Allohning amrlariga bo'ysunsin, ochiq-sochiq yurishmasin,

112 aks holda bu yerda ming bora pushaymon bo'lishadi va jannat ne'matlaridan bebahra qolishadi, «Qalbim toza, qalbinga qara, namozimni ham o'qiyman» kabi so'zlar g'aflatda qolgan kimsaning gaplaridan boshqa narsa emas, bu xatoga aslo yo'l qo'yishmasin, mo'minlar barcha go'zal va shar'iy amallarini ko'paytirsan, bu yerda nadomat qilmaydilar, moda, deb butun qomatlarini ko'rsatadigan kiyimlarga burkanmasinlar, ko'kraklarini ochib, avrat joylarini namoyish etmasinlar, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyurganlaridek, «kiyimli yalang'ochlar» o'laroq o'zlarini aldamasin;

111. «Mo'minlarga ham ayting, ko'zlarini (nomahram erkaklarga tikishdan) to'ssinlar va avratlarini (haromdan) saqlasinlar! Hamda ko'rinib turgan boshqa zeb-ziynatlarini ko'rsatmasinlar va ko'kraklarini ro'mollari bilan to'ssinlar!..» (Nur surasi, 31-oyat.)

112. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam dedilar: «Do'zax ahlidan ikki toifa borki, hanuz ularni ko'rmadim: yonlarida sigirning dumiga o'xshagan narsalar (qamchi) olib yurib, u bilan insonlarni uradiganlar, (ikkinchisi) kiyingan yalang'och ayollarki, ular Allohga toatdan tashqariga chiqqanlar. Bular boshqalarni ham yo'ldan uradilar. Boshlari tuyani o'rkachiga o'xshaydi. Bu ayollar jannatga kirish tugul uning hatto hididan bahra olisholmaydi...» (Imom Muslim, «Jannat», 53).

113 - yana bilishingiz kerak, bu yerda hech bir gunoh yashirin qolmaydi, boshqalar ko'rmaydi, degan xayolda gunohga qo'l urmanglar, chunki hisob-kitob kuni hatto gunoh qilgan a'zolingizning o'zi ham guvohlik berishadi;

114 - Allohga ko'p duo qilinglar, barcha ibodatlarning asosi va o'zagi duolardir, qullikning ifodasi va e'tirofidir, duolar mevasini bu yerda yig'asizlar, ba'zan duolarimiz qabul bo'lmayapti, deya umidsizlikka tushib, xafa bo'lmanglar yoki shoshma-shosharlik qilmanglar, agar duolingiz qabul bo'lmayotgan bo'lsa, sababini o'zingizdan izlang

113. «Allohning dushmanlari do'zaxga (haydali uchun) to'planib, tizilib turadigan Kunni (eslang). Endi qachonki ular (do'zaxga) kelishgach, hayoti dunyoda qilib o'tgan kufri isyonlari haqida so'raladi, lekin ular o'z qilmishlaridan tonishga urinadilar. (Shunda) ularning quloqlari, ko'zlari va terilari ular qilib o'tgan narsalari haqida o'zlariga qarshi guvohlik beradi. Ular terilariga: «Nima uchun bizga qarshi guvohlik berdinglar?» deyishganida, (terilari): «Bizlarni barcha narsalarni so'zlatgan Zot Alloh so'zlatdi. Sizlarni dastlab U yaratgan va sizlar yana Uning O'zigagina qaytarilursizlar», dedilar» (Fussilat surasi, 19-21-oyatlar). «Bu kun ularning og'izlarini muhrlab qo'yurmiz. Va Bizga ularning qilib o'tgan ishlari haqida ularning qo'llari so'zlar va oyoqlari guvohlik berur» (Yosin surasi, 65-oyat).

114. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: «Duo ibodatning o'zi (iligi, o'zagi, mag'zi)dir» («Kutubi sitta», 5/483).

115 va darhol bu kamchiliklarni bartaraf etingki, duolaringiz ham qabul bo'lsin; - oldi-sotdida hiyla qilmanglar, yolg'on qasam ichib, ayb-nuqsonli molni aybsiz qilib ko'rsatmanglar, Allohga bergan va'dangizga sodiq qoling, aks holda Allohning g'azabiga uchraysizlar; 116 - nafsning g'ayri mashru' orzulariga quloq solmanglar, tez-tez nafsingizga nasihat qiling;

115. Ibrohim Adhamdan «Duolarimiz nima uchun qabul bo'lmayapti?» deb so'rashganida, «Qalblaringiz sakkiz narsa sababli o'lgan: 1. Allohga iymon keltirasiz, lekin itoat etishning haqini bermaysiz. 2. Qur'on o'qiyasiz, lekin talab qilinganidek amal etmaysiz. 3. Payg'ambarni sevishingizni aytasiz, lekin barcha ishlaringizda o'zingizni jahannamga tayyorlaysiz. 5. Jannatni sevishingizni iddao qilasiz, lekin unga tayyorgarlik ko'rmaysiz. 6. Oxiratga ishonasiz, lekin o'limdan qo'rqmaysiz, unga tayyorlanmaysiz. 7. Ne'matlarni yeysiz, lekin shukr qilmaysiz. 8. Birovlarning aybini qidirasiz, lekin o'zingizning qusurlaringiz bilan shug'ullanmaysiz», deb javob berdilar («Ihyo», 2/877).

116. «Allohga bergan ahd-paymon va qasamlarini ozgina qiymatga sotib yuboradigan kimsalar uchun oxiratda hech qanday nasiba yo'qdir. Qiyomat kunida Alloh ularga so'z qotmaydi, rahmat nazari bilan boqmaydi va gunohlaridan poklamaydi. Ular uchun alamli azob bordir» (Oli-Imron surasi, 77-oyat).

117 - o'limni orzu qilmanglar, lekin o'limga tayyor turinglar;

118 - o'tkinchi dunyo manfaati uchun aslo pora olmanglar, pora bermanglar, keyinchalik Allohning la'natiga uchraysiz;

117. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyuradilar: «To'rt narsa shaqovat (xusron, badbaxtlik) alomatidir: ko'zlarning qurishi (gunohlardan yig'lamaslik), qalbning qotishi, tulul amal (hech o'lmaydigandek dunyoga bog'lanish), mol-dunyoga ortiqcha hirs» («Kutubi sitta», 6/260).

118. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyuradilar: «Sizlardan hech kim duchor bo'lgan zarar sababli o'limni orzu qilmasin. Shunday qilishga majbur bo'lsa, «Rabbim, haqimda hayot xayrli bo'lsa, yashatgin, o'lim xayrli bo'lsa, jonimni olgin», desin» («Kutubi sitta», 3/457). O'limni orzu qilishdan ko'ra uni eslash ma'quldir. Mo'minning eng aqllisi haqida so'ralganida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «O'limni ko'p eslaydigan va o'limdan keyin uchun eng yaxshi tayyorgarligini ko'rganlar. Mana shular eng aqlli kishilar», deya marhamat qildilar («Kutubi sitta», 17/229).

119 - musibat kelganda ham ibodatlarni ado etishda sabrli bo'linglar;

120 - Allohning sizlarga bergan ne'matlarida boshqalarning ham haqi borligini o'ylanglar va sadaqa berishni unutmanglar;

119. Abu Hurayradan roziyallohu anhu rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hukm chiqarishda pora olgan va pora bergan (o'rtada turgan) kishini la'natladilar» («Kutubi sitta», 13/441).

120. Ibadatning mashaqqatiga chidab, Allohning roziligini topish uchun sabr bilan ado etish mo'minga mukofot qozonadigan xatti-harakatdir.

121 - silai rahmni o'rniga qo'yinglar;

122 - g'iybat qilmanglar, gap tashimanglar, do'stlar o'rtasiga nifoq solmanglar, yengil ko'ringan xatolar bu yerda qabr azobini orttiradi;

121. «Sadaqa Allohning g'azabini pasaytiradi va yomon o'limni bartaraf qiladi» (Imom Termiziy). Boshqa bir hadisda: «Sadaqa berishga shoshiling, chunki balo sadaqaning oldidan o'tolmaydi» («Kutubi sitta», 9/243).

122. «Silai rahm go'zal axloqdir. Boshqalar bilan yaxshi muomalada bo'lish shaharlarni ma'mur, umrlarni uzun qiladi». «Silai rahm mol-davlatda boylikni, oilada sevgini, umrda uzoqlikni oshiradi». «Kim rizqining Alloh tomonidan kengayishini, ajalining cho'zilishini istasa, silai rahm qilsin». «Silai rahmni uzgan jannatga kirolmaydi». InshaAlloh, har bir iymon egasining jannatga kirishiga shubha yo'q. Biroq Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu yerda silai rahmning ahamiyatiga e'tiborimizni qaratganlar.

123 - Alloh bergan behisob ne'matlarga shukrona aytishni bilinglar;

124 - tavakkalchi bo'linglar, Allohning do'stligiga erishasizlar;

123. Ibn Abbosdan roziyallohu anhu rivoyat qilinadi. Rasuli Akram ikki qabrning yonidan o'tayotganlarida: «Bular azoblanyaptilar, ammo azoblanishlari ularning nazarida katta narsa uchun emas», dedilar. So'ng davom etdilar: «Ha, gunohlari katta. Biri siydikdan saqlanmas, yaxshilab tahorat olmas, ikkinchisi esa fitna-fasod qilardi», deb marhamat qildilar («Riyozus solihin», 3/119).

124. «Yana Parvardigoringiz bildirgan (bu so'zlarni) eslangiz: «Qasamki, agar bergan ne'matlarimga shukr qilsangizlar, albatta (ularni yanada) ziyoda qilurman...» (Ibrohim surasi, 7-oyat).

125 -va'daning ustidan chiqinglar, aks holda qiyomat kuni soxtakor, deya ko'rsatilasizlar;

126 - yolg'on qasam ichmanglar va to'g'ri bo'lsa ham, qasam ichishdan saqlaninglar;

125. «... Kim Allohga tavakkul qilsa, bas, (Allohning) O'zi unga yetarlidir...» (Taloq surasi, 3-oyat). Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyurdilar: «Tuyaning arqonini bog'la (ya'ni, oldindan tadbirini ko'r), so'ng Allohga tavakkul qil» («Kutubi sitta», 17/598).
126. «Bilsangiz, qiyomat kuni ahdda turmagan har bir bevafoqa vafosizligi darajasiga ko'ra bir bayroq tikiladi, shu alfozda bevafoligi namoyish qilinadi» («Kutubi sitta», 17/379).

127 - ovqatdan oldin va keyin qo'l yuvishni unutmanglar, xonadoningizda huzur-halovat ko'payadi, o'sha huzur bu yerda ham aks etadi;

128 - yerga tupurmanglar;

127. «Kim bilib turib Islom dinidan boshqa dinga yolg'on qasam ichsa, o'zi o'sha aytgani kabidir...» («Kutubi sitta», 16/326).

128. «Kim Alloh taolo uyining xayr va barakatini orttirishni istasa, ovqatdan oldin va keyin qo'lini yuvsin» («Kutubi sitta», 17/426).

129 - yetimlarning holidan xabar olinglar;

130 - zakotni o'z vaqtida, bekamu-ko'st beringlar;

129. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyurdilar: «Ummatimning barcha yaxshi va yomon amallari menga ko'rsatildi. Yaxshi amallari ichida yo'ldan olib tashlangan «qiyinchilik» (insonlarga xalaqit beradigan narsalar)ni ham ko'rdim. Yomon amallar ichida esa (hammaning ko'zi tushadigan) yerga tashlangan tupuk ham bor edi» («Kutubi sitta», 10/121).

130. «Alloh nazdida eng sevimli uy yetimga ikrom qilinadigan uydur» («Tanlangan hadislar», 234-bet).

131 -Allohni ko'p zikr qilinglar, shundagina eng yomon xastalik - g'aflatdan qutulasizlar;

132 - bu yerdagi hayotga taalluqli eslatmalar yana ko'p narsalar bo'lishi mumkin, lekin men shu bilan kifoyalanaman. Har bir amalni Alloh rizosi uchun qilinglar. Allohga haqiqiy qul bo'ling va to'lanishi lozim bo'lgan eng muhim qarz - qullik qarzini aslo kechiktirmanglar! Boshqalarni emas, Allohni xushnud etish uchun g'ayrat qilinglar.

131. «...Oltin-kumushni bosib, uni Alloh yo'lida infoq-ehson qilmaydigan kimsalarga alamli azob «xushxabari»ni yetkazing! U kunda (qiyomatda) o'sha (oltin-kumushni) jahannam o'tida qizitilib, o'sha bilan ularning peshonalari, yonlari va ketlariga bosilib: «Mana bu o'zlaringiz uchun to'plagan narsalaringizdir. Endi to'plab-bosgan narsalaringizni mazasini totib ko'ringlar», (deyilur)» (Tavba surasi, 34-35-oyatlar). Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Zakot Islomning ko'prigidir»; «Islomning kamoloti zakot berilishida», deya marhamat qildilar («Kutubi sitta», 6/374).

132. «Parvardigoringizga ichingizdan yolvorib, qo'rqib, dildan erta-yu kech yod qiling va g'ofil kimsalardan bo'lmang!» (A'rof surasi, 205-oyat.) «Bas, Meni eslangiz, Men ham sizlarni eslayman va Menga shukr qilingiz va Meni inkor qilmangiz!» (Baqara surasi, 152-oyat.) Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam buyurdilar: «Jannat bog'lariga kirganingizda foydalanib qoling va gullarini hidlang». Sahobalar so'rashdi: «Jannat bog'lari qaysinisi, yo Rasululloh?» U zot alayhissalom: «Zikr majlislaridir», deya marhamat qildilar («Ihyo», 1/90).

133 Onajon, sizga aytar so'nggi so'zlarim: - Alloh taologa suyaning, haqiqiy do'stni topasiz; - Qur'onga tobe' bo'ling, siroti mustaqiymda bo'lasiz; - Muhammad sollallohu alayhi vasallamni haqiqiy murshid deb biling, to'g'ri yo'ldan adashmaysiz; - ibrat uchun musalloga (janozada mayyit qo'yiladigan joy) qarang va tafakkur qiling, oxiratga tayyorlanasiz; - g'azabni yenging, pushaymon bo'lmaysiz; -jihadni nafsingiz bilan qiling, foyda ko'rasiz; - nafsingizni aybdor deb bilsangiz, to kechirulguncha kishanlab qo'ying; - boshqalarni har doim afv eting, o'zingizni esa aslo; - o'zingizni har kuni hisob-kitob qiling; - nasihatni avvalo nafsingizdan boshlang; - nafsingiz va naslingizning huzuri uchun me'dangizga harom luqma kirishiga aslo yo'l qo'ymang; - haqiqiy boylukni qanoatdan izlang; - Yaratuvchi bilan birga barcha yaratilganlarni ham seving; - shafqat

va marhamat hamrohingiz bo'lsin; - iymon sharafi hammaga ham nasib etmaydi, uni yaxshilab asrang, solih amallar bilan oziqlantirishni unutmang; - dunyo va oxirat hayotingizning go'zal boqqa aylanishini istasangiz, yaxshilik urug'larini ko'nglingizga eking, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hadislari bilan sug'oring, Qur'on ila singdiring, tarovati va mevasini barcha insonlarga ulashing; - boshqalarda ko'rishni istaganingiz go'zalliklarni avvalo o'zingizning nafsingizda yashang... Va meni kechiring, onajon. Jannatda ko'rishmoq umidi ila O'g'lingiz.

133. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Kim xalqning g'azabiga e'tibor bermay, Allohning rizosini qidirsam, insonlarning qiyinchiliklariga Alloh kifoya qiladi. Kim Allohning g'azabiga bee'tibor bo'lib, xalqning rizosini qidirsam, Alloh uni o'z holiga tashlab qo'yadi» («Kutubi sitta», 16/273).

www.ziyouz.com

2008